

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

“HIMOYAGARUXSAT ETILDI”

“Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o'rganish YUNESKO”
kafedrasini mudiri

_____ t.f.n., dots. N.Muhamedov

“ _____ ” _____ 2012 yil

Ashirova Xolida Asqar qizi

Mavzu: KANADADAGI DINIY TASHKILOTLAR FAOLIYATI
(zamonaviy tadqiqot)

Ta'lim yo'nalishi: 5220400 – Dinshunoslik

Bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilgan
bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. N.Muhamedov
Taqrizchi: t.f.n. D.Murodov

Toshkent – 2012

MUNDARIJ A

KIRISH.....	3
I BOB. KANADADA DAVLAT VA DIN	
MUNOSABATLARI.....	8
1.1 Kanada qonunlarida vijdon erkinligi.....	8
1.2. Kanada ta'lim tizimida diniy fanlar o'qitilishi.....	15
II BOB. KANADADA DINIY TASHKILOTLAR FAOLIYATI HAQIDA	
MA'LUMOTLAR.....	26
2.1. Kanadadagi turli diniy konfessiyalar	26
2.2. Kanadadagi diniy tashkilotlar faoliyati haqida umumiy tushuncha.....	38
XULOSA.....	48
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	51
Ilova.....	55

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda fuqarolarning din va vijdon erkinligiga oid huquq va manfaatlarini ta'minlash, millatlararo va diniy konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro ahillik, bag'rikenglik, hamjihatlik tamoyillariga qat'iy amal qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda e'tiqod, vijdon erkinligiga doir kafolatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida qat'iy belgilab qo'yilgan.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson Xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi¹.

Ayni paytda milliy-madaniy, ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan diniy-ma'rifiy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, buyuk ajdodlar merosini o'rganish, chuqur tadqiq etish, muqaddas qadamjolarini tiklash, ta'mirlash va obodonlashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Istiqlol arafasida, Markaziy Osiyoda diniy omil mavqeining ortib borishini hisobga olib, 1991 yil 14 iyunda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun jamiyatni demokratlashtirishdan kelib chiqqan holda, tobora kuchayib borayotgan mustaqillik uchun g'oyaviy kurash ta'sirida O'zbekiston hukumati tomonidan tuzilgan edi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda dinga munosabat tubdan o'zgardi. Mustabid tuzum davrida dinga nisbatan bir yoqlama (taqiqlovchi) munosabat o'rnini diniy e'tiqod erkinligi egalladi.

Islom diniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalar, din peshvolarining nomlari qayta tiklandi, islom dinining taraqqiyotiga doir qator tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Bunday tadbirlar O'zbekistonda faoliyat

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi.II bo'lim, VII bob, 31-modda. - T.:O'zbekiston, 2008. - B.8.

yuritayotgan boshqa diniy konfessiyalarda ham amalga oshirildi. Bu tadbirlarning ayrimlarini sanab o'tish kifoya.

Masalan, 1991 yil 11 apreldan "Ro'za hayiti" va "Qurbon hayiti"ni umumxalq bayram deb e'lon qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. 1992 yil 7 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 1992 yil 1 aprelda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

"Bugungi kunda yurtimizda 130dan ortiq millat va elat, 16 diniy konfessiya vakillari o'zaro ahillik va totuvlikda yashab, Vatanimiz ravnaqi yo'lida samarali mehnat qilmoqda"².

Yurtdoshlarimizni, ayniqsa, yoshlarni muqaddas islom dini va falsafasi, ulug' ajdodlarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolariga, shu bilan birga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dinlar tarixi, madaniyati, falsafasiga oid bilimlar, ilmiy-ma'rifiy ta'limotlar Toshkent islom universiteti, Toshkent islom instituti va ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalarida puxta o'rgatilmoqda. O'zbekistonda turli dinlarga mansub fuqarolarning o'z diniy arkonlari va amallarini emin-erkin ado etishi uchun barcha sharoit yaratilgani barobarida diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati berilgan.

Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro islom tashkiloti – ISESCO tomonidan Toshkent shahri 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani mamlakatimizda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy va madaniy merosini o'rganish va rivojlantirish, diniy bag'rikenglik, hamjihatlik va o'zaroahillikni ta'minlash borasidagi ezgu sa'y-harakatlarning xalqaro miqyosdagi yana bir e'tirofi bo'ldi.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizi o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 2011,- B.66.

Biroq bugungi murakkab va tahlikali, tezkor globallashuv davrida dunyoning turli mamlakatlarida ro'y berayotgan mojarolarda diniy va milliy xususiyatlar ham borligi sir emas. Bu barchani yanada hushyorlik va ogohlikka, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga, uning qadriga yetishga, jamiyatdagi barqaror muhitni asrab-avaylashga, yoshlar tarbiyasi uchun mas'uliyatni his etishga da'vat etadi. Shu ma'noda yurtimizdagi millatlararo va diniy konfessiyalararo totuvlik, o'zaro hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijlik olimlar, ekspertlar, yetuk mutaxassislar tomonidan e'tirof etilayapti va bu ko'plab mamlakatlar uchun namuna bo'la olishi ta'kidlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, yili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi shart³.

Vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik, diniy tashkilotlar faoliyati sohasida jahon tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqotning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, hozirgi kunda Kanada jahonda iqtisodiy va siyosiy sohalarda o'zining beqiyos mavqeiga ega bo'lib, rivojlangan mamlakatlar orasida aholisining e'tiqodiga ko'ra xilma-xilligi bilan ajralib turadigan mamlakatdir. Shunday vaziyatda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni ob'ektiv o'rganish va tegishli xulosalar olish muhimdir.

Ikkinchidan, Kanada ta'lim tizimini o'rganish va tizimdagi dinning ahamiyatini tadqiq qilish.

Uchinchidan, davlatdagi diniy tashkilotlar faoliyati haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Ya'ni diniy tashkilotlar moliyaviy va inson resurslari, bu tashkilotlarning jamiyatdagi ahamiyati va muammolarini o'rganish.

To'rtinchidan, Kanadadagi turli diniy konfessiyalar bilan tanishish, ular haqida umumiy ma'lumotlarni olish.

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi.II bo'lim, V bob, 18-modda. - T.: O'zbekiston, 2008. – B.8.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kanadada davlat va din munosabatlari, ta'lim tizimidagi dinning ahamiyati, diniy tashkilotlari va konfessiyalari haqida ko'plab chet el olimlar tadqiqotlar olib borishgan, maqolalar, kitoblar yozishgan. Shulardan Nock, D.A., "Kanadada diniy tashkilotlar faoliyati"(1993)⁴, Lori G. Beaman "Din va Kanada jamiyati: an'analar, qadriyatlar va yangiliklar"(2006)⁵, David Seljak "Kanadada din va etnik xilma-xillik"(2009)⁶, Paul Bramadat "Kanadada xristianlik va boshqa etnik jamoalar"(2008)⁷, Robert Choquette "Kanadadagi dinlar: tarixiy yondashuv"(2004)⁸ kabi ko'plab olim va tadqiqotchilar asarlarida uchratish mumkin. Yuqoridagi asarlardan Kanadadagi dinga aloqador ob'ektiv ma'lumotlar olsak bo'ladi.

Bundan tashqari, Kanadaning bir necha ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan ham yuqoridagi mavzular o'rganilgan, so'rovnomalar o'tkazilgan. 2005 yili Kanadaning diniy tashkilotlar faoliyatini o'rganishga qaratilgan ikkita so'rovnomalardan ham keng foydalanildi.

Yurtimizda davlat va din mavzusida bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Masalan, A.Yunusovning "Din va hozirgi zamon" nomli qo'llanmasi, "Islom va zamon" deb nomlangan o'quv qo'llanmalar Toshkent Islom Universiteti tomonidan 2010 yilda chop etilgan va boshqa yurtimiz tadqiqotchilarining maqola va kitoblarini sanab o'tsak bo'ladi. Yuqoridagi qo'llanmalarni asosiy manba qilib olsak bo'ladi lekin, aynan Kanadadagi dinga bo'lgan munosabatlar to'g'risida haligacha o'zbek tilida tadqiqotlar olib borilmagan, ma'lumotlar ham uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mavzuni yoritishdan maqsad - Kanadada davlat va dinmunosabatlarini o'rganish va Kanadada diniy tashkilotlar faoliyati haqida ma'lumotlar berishdir.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

⁴ Nock, D.A., The Organization of Religious Life in Canada. in W.E. Hewitt, ed., The Sociology of Religion: A Canadian Focus, Toronto, Butterworths, 1993. - p.309.

⁵ Lori G. Religion and Canadian society: traditions, transitions, and innovations. Cambridge Scholars Publishing, 2006.

⁶ David Seljak. Religion and Ethnicity in Canada. University of Toronto Press., 2009. – P.568.

⁷ Bramadat, Paul; David Seljak. Religion and Ethnicity in Canada. University of Toronto Press, 2009. – P.322.

⁸ Choquette, Robert. Canada's religions: an historical introduction. University of Ottawa Press, 2004. - P.234.

- ❖ Kanada qonunlarida vijdon erkinligini o'rganish;
- ❖ Kanada ta'lim tizimida diniy fanlar o'qitilishini tadqiq etish;
- ❖ Kanadadagi turli diniy konfessiyalar haqida ma'lumotlarni tahlil qilish;
- ❖ Kanadadagi diniy tashkilotlar faoliyatini tadqiq etish.

Tadqiqot natijalarining ahamiyati. O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan Kanada bilan diplomatik aloqalar 1992 yildan boshlandi. Bugungi kungacha ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada hamkorlik qilib kelinmoqda.

So'nggi yil davomida o'zbek-kanada aloqalarida ijobiy jonlanish ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, 2010 yil aprel oyida o'zbek-kanada Tashqi ishlar vazirliklari o'zaro maslahatlashuvining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda har ichki tomonni o'zaro qiziqtirgan keng doiradagi masalalar ko'rib chiqildi. 2010 yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari boshchiligidagi delegatsiyaning Ottavaga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif davomida Kanada Tashqi ishlar vaziri va Kanada hukumatinig boshqa rasmiy vakillari bilan ikki tomonlama aloqalarninig siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsion, madaniy-gumanitar yo'nalishlarda kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Tashrif natijasida O'zbekiston va Kanada tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik haqidagi Memorandum imzolandi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish ikki davlatning bir-birini yanada yaqindan o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Din va davlat munosabatlari", "Diniy va dunyoviy ta'lim tizimi", "Diniy tashkilotlarning ahamiyati", "Diniy konfessiyalar o'rtasida diniy bag'rikenglik" kabi mavzulardagi maxsus kurslarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

I BOB. KANADADA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI.

1.1. Kanada qonunlarida vijdon erkinligi

Kanada Shimoliy Amerikada joylashgan, jahonda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlardan biri, «sakkizlik» davlatlari qatoriga kiradi.

“Kanada hududi Shimoliy Amerika materigining shimoliy qismi va unga yondosh orollarda joylashgan. Maydoni 9976,1 ming kv. km., aholisining soni 31,6 mln. kishi (2004-y.) Kanada — parlamentar monarxiya, u Buyuk Britaniyaning dominioni, lekin 1931- yilda unga to’la mustaqillik berilgan”⁹.

“Aholisining qariyb 40 foizi ingliz-kanadaliklar, 30 fozi fransuz-kanadaliklardan iborat. Qolgan qismi nemislar, italyanlar, ukrainlar, gollandlar, ruslar va boshqa millat vakillaridan tashkil topgan. Aholining o’rtacha yillik o’sish sur’ati keyingi o’n yilliklarda 1 foizdan oshmayapti. Shaharlarda jami aholining deyarli 80 foizi istiqomat qiladi”¹⁰. Yirik shaharlari qatoriga Monreal, Toronto, Vankuver, Kvebek va boshqalar kiradi.

Shunday rivojlangan mamlakatda dinga qanday munosabat mavjudligini quyida bayon qilishimiz mumkin.

Din o’ta murakkab ijtimoiy hodisa. U o’ziga xos tarkibga ega bo’lib, kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti hosilasidir. Din kishilarning g’ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdan yuzaga kelgan. Zero, “din” so’zi arab tilidan olingan bo’lib, o’zbek tilida “ishonch”, “ishonmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Lekin shu kungacha jahondagi ko’plab mutaxassislar tomonidan bu so’zni ta’riflashga urinishlar bo’lgan va umum kelishuvga hali hanuz erishilgani yo’q. “Din” - bu “muhabbat”, “to’g’ri yashash yo’llari” kabi ta’riflar tanqidlarga uchrab, o’zini dinsiz deb bilganlarni kamsitishi mumkin degan sabablar bilan umum qabul qilinmagan. “Din” so’zi har bir inson uchun turlicha ma’noni anglatadi. Masalan, xristianlar “din” deganda “Iso bilan aloqalar”ni tushunsa, boshqalar “xavfsizlik tuyg’usi”ni tushunishadi. Ba’zilar dinga ijobiy ta’rif bersa, ba’zilar salbiy ta’rif beradi. Masalan, Karl Marks “Din - bu insonlar

⁹www.wikipedia.com

¹⁰www.statcan.gc.ca

uchun ofyun (giyohvand modda)dir”-degan. Votson degan olim “Din – bu shaxsning hayotdagi maqsadi va hayotining mazmunidan kelib chiqib amalga oshirayotgan xatti-harakati.”- deb ta’rif beradi.

Iudaizm, xristianlik va islom dinlarini birinchilar qatoriga qo’yib, buddizm, taoizm, yoki totemizmlarni ikkinchi darajali deyish umuman maqbul emasdir. Bunday ko’p sonli e’tiqod yo’llari tan olinishi va hurmat qilinishi lozim.

Diniy bag’rikenglik tushunchasi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, bu tushunchani targ’ib qilish, odamlarga singdirish uchun jahonning turli mamlakatlarida ilmiy anjumanlar, konferensiyalar xalqaro miqyosda o’tkazilib kelinmoqda. Bugungi globallashuv, integratsiyalashuv davrida ommaviy axborot vositalari, turli reklamalar, kino-filmlar va boshqa vositalar orqali ommaviy madaniyat keng yoyilib, insonlarda qadriyatlarga, shu jumladan dinga munosabat keskin o’zgarib kelmoqda ya’ni dinni rad etish, o’zini biror bir dinga mansub deb bilib, lekin shu din ahkomlariga amal qilmaslik kabilar. Umuman olganda, din har qanday e’tiqod qiluvchi uchun oliy qadriyat hisoblanadi va nozik mavzulardan biridir. Har qanday demokratik tuzumni tanlagan mamlakatda fuqarolarning eng asosiy huquqlaridan biri bu vijdon erkinligidir.

Diniy erkinlik Kanada Konstitutsiyada belgilangan huquqlardan biri hisoblanib, mamlakat hududida har qanday dinga e’tiqod qiluvchilarga hech qanday cheklov yoki aralashishsiz bir joyga jamoa bo’lib to’planish va ibodat qilishga qonun tomonidan ruxsat beriladi.

Kanadadagi bunday diniy xilma-xillik qonun bilan tartibga solinishini taqozo qiladi. Asosiy huquqiy manba hisoblanadigan Huquqlar Nizomi kitobining 2 bobi ya’ni “Asosiy huquq va erkinliklar” bobida, har bir kishi quyidagi huquqlarga ega deyilgan¹¹:

- a) Din tanlash erkinligi;
- b) Erkin fikrlash, e’tiqod, o’z fikrini bayon qilish, ya’ni matbuotda va boshqa ommaviy axborot vositalarida o’z fikrini bayon qilish;
- c) Tinch holatda bir yerga to’planish;

¹¹ “The Canadian Charter of freedoms and rights” – P. 1.

d) Turli jamoalarni tashkil qilish.

1991 va 2001 yillarda o'tkazilgan statistik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Kanada jahonda diniy guruhlar ko'pligi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turar ekan. Quyidagi jadvalda Kanadadagi asosiy diniy guruhlar va ularga e'tiqod qiluvchilar miqdori keltirilgan¹².

	1991		2001		Sonlarning foiz(%)da o'zgarishi
	E'tiqod qiluvchilar soni	Sonlar foizda (%)	E'tiqod qiluvchilar soni	Sonlar foizda (%)	
Jami aholi	26,944,040		29,639,035		+9.8
Xristianlar	22,503,360	83	22,851,825	77	+1.5
- Rim katolik cherkovi	12,203,625	45.2	12,793,125	43.2	+4.8
-Jami Protestantlar	9,427,675	34.9	8,654,845	29.2	-8.2
- Kanada cherkov birlashmasi	3,093,120	11.5	2,839,125	9.6	-8.2
-Kanada Anglikan cherkovi	2,188,110	8.1	2,035,495	6.9	-7.0
-Baptistlar	663,360	2.5	729,470	2.5	+10
-Luseranlar	636,205	2.4	606,590	2.0	-4.7
-Prezbiterianlar	636,295	2.4	409,830	1.4	-35.6
-Ortodoksial Xristianlar	387,395	1.4	495,245	1.7	+27.8
Hech bir dinga mansub bo'lmaganlar(dinsizlar)	353,040	1.3	780,450	2.6	+44.2
Boshqa dinlar vakillari	1,093,690	4.1	1,887,115	6.4	+72.5
-Musulmonlar	253,265	0.9	579,645	2.0	+128.9
-Yahudiylar	318,185	1.2	329,990	1.1	+3.7
-Buddistlar	163,415	0.6	300,345	1.0	+83.8
-Hindular	157,010	0.6	297,200	1.0	+89.3
-Sikhlar	147,440	0.5	278,415	0.9	+88.8

¹² www.imaginecanada.ca

2001 yilgi statistikaga nazartashlaydigan bo'lsak mamlakatdagi jamiahohlining deyarli 72% i Rim katolik yo'nalishi a'zolari g'rikeladi.

Rimning katolik yo'nalishiga ko'pchilik aholi tomonidan e'tiqod qilinadi.

Jamiahohlining 16% iesa, hech qanday dindamansubemas.

Mamlakatdagi dinsizlar soni keskin oshayotganini ko'rish mumkin.

British Kalumbiyaprovinsiyasida 35% aholi dinsiz bo'lib,

Provinsiyada har qanday diniy oqimning gashuvchilari sonidan,

xatto protestantlar sonidan ham ko'pligi aniqlandi.

Kichik diniy guruha'zolari masalan musulmonlar, yahudiylar, buddistlar, hinduiylar, sikhlari yuqori o'sishga ega bo'lmoqdalar. Xristianlarsa,

jadvaldagi ribturganimizdek 1991 yildagi jamiahohlining 83% i tashkil qilgan bo'lsa, 2001 yilda 77% ni ko'rsatib, kamaygan.

Demak, biz gama'lumbo'ladiki, kanadaliklari o'z ekin fikr va e'tiqodlariga ega bo'lish,

birdinga ergashish yoki bir ordinni tarketish,

diniy mazmundagi yoki boshqatardagi ibot-

tashviqotishlarini amalga oshirish huquqiga ega ekanlar. Kanadadagi diniy tashkilotlar,

odatda, hayr-

ehson qiluvchi tashkilotlar hisobiga faoliyat yuritish divao'z navbatidagi hayr-

ehson qilgan tashkilotlar hukumati tomonidan soliqlardan ma'lummiqdordagi chergimalarga

ega bo'ladilar.

Inson huquqlari kodeksi gako'radi niy ekinlikka davlatning aralashuvini cheklas

hbilan bir paytningo'zidagi mamlakatdagi har bir provinsiyaningo'z kodekslarini o'z qalib har b

irshaxsning faoliyatini nazorat qilib turiladi. Bu kodekslarda savdo-sotiq joylarida,

aholining arjolarida,

turlixil daga bo'shisho'rinlarigada'vogarlik paytidagi diniy yirmachilik kayo'lqo'yilmas

ligito'g'risida aytilgan. Ba'zibir hujjatlarni quyidagi ko'ribchi qamiz.

“1955

yildagi Chaput Romain boshchiligidagi Kanada Oliy Sud barchad inlar qonun oldi dateng

huquqga ega lar,

hechqandaydindavlattomonidanasosiydindebbelgilanmaydideganhukmchiqargan”

13.

1985 yildagi Kanada Oliy Sudining sudyasi Brain Dikson sud zalidan turib, mamlakatdagi diniy erkinlik o'z ichiga diniy mavzudako'pchilik oldidan utqso'zlash va sh ubilan birga bir shaxs biror birdin nitanlagan bo'lsa, o'shadingayana daljal b qilinish, diniy ta'limotlarni ochiq, hechqanday to'siqsiz ommaga yetkazish, diniy targ'ibotishlarini ibodat, turli rasmiy-rusumlar orqali yo'qitish, ma'lumotlarni tarqatish kabifaoliyatlarini qamrab oladi.

Kanadada kishilarning rangi, dini, etnik kelib chiqishi, jinsiga nisbatan ayirmachilik ruhini uyg'otadigan harqanday xatti-harakat qonun tomonidan ta'qiqlanadi.

“1996

yilda Kanada Oliy Sudini Nyu Brunsvik shahridagi birmaktabo'qituvchisining anti-semitik mavzudagi kitob yozishi haqida buprovinisiya qonunlariga zid bo'lishiga qarabmasda nuni oqlab chiqdi. Chunki bu uning diniy erkinligini kafolatlash bilan birga maktab tizimida bir yoqlamalikni oldini olar edi”¹⁴

Nikoh munosabatlari haqidagi qarorlar. 1798 yilga qadar nikoh marosimlarini Kanada Yuqori qismidagi hududlarda Angliya cherkovi tomonidan amalga oshirilgan. 1857 yildagi hukumat qarori bilan xristian dinining barcha sektalari cherkovlariga nikoh o'tkazish huquqi berildi. Xuddi shu huquqlar Kanadaning janubiy qismlarida yani Rim katolik cherkovi yolg'iz nikoh o'tkazadigan provinsiyalarda ham amalga oshirildi.

“Mamlakatdagi b'azi kichik diniy guruhlar tomonidan amalda bo'lgan ko'pxotinlik hukumat qonuni tomonidan qati'an ta'qiqlanadi”¹⁵.

2006 yil 12 yanvarda Kanada Justice Bo'limi tomonidan Kuens Universitetining uchta huquq fani professorlarining Kanadada ko'pxotinlikni qonunda jinoyat deb hisoblamaslik taklifi to'g'risidagi ilmiy ishlari taqdim etildi.

¹³ Stark, R. and W.S. Bainbridge, *The Future of Religion*, Berkeley, University of California Press, 1985. – P.12.

¹⁴ Moon, Richard X. *Law and religious pluralism in Canada*. UBC Press, 2005. –P.10.

¹⁵ www.imaginecanada.gc.ca

2000 yilda Skot Brokie, Toronto shahridagi noshir Kanadadagi besoqolboz erkak va ayollar uchun konvertlar, markalarni nashr qilishni rad etgani uchun Ontario Inson Huquqlari Bo'limi tomonidan besh ming AQSh dollari miqdorida jarima to'lashga majbur bo'ldi. Brokie Ontario Appilyatsiya Sudiga jarimani qaytib olish maqsadida murojaat qiladi. Appilatsiya Sudi qaroriga ko'ra: yuqoridagi turdagi faoliyat Brokiening diniy qadriyatlarini poymol qilish bilan birga qonunga binoan uning diniy erkinligiga chek qo'yadi. Bo'lim Brokiedan dinining asosiy qadriyatlari bo'lgan narsalarni poymol qilib, turli narsalar nashr qilishga undashi shaxsning diniy erkinligini qo'pol tarzda buzish edi.

Saskatchivan provinsiyasi Sudiga hukumat tomonidan belgilangan FHDYo hodimlari bir-jinsli nikohdan o'tmoqchilarning murojaatini diniy nuqtai nazardan rad etgani noqonuniy deb topildi. Chunki, hukumatning FHDYo hodimlarining besoqolbozlarning nikohini ro'yhatga olishni rad etishlari Mamlakatning Inson Huquqlari Nizomidagi besoqolbozlar huquqlarini poymol qilish edi. 2008 yilda Saskatchivan Inson huquqlari Tribunali Davlat FHDYo hodimi Orville Nikols bir juft besoqolbozlar nikohini rasmiylashtirishga qarshilik qilganligi qoraladi. Tribunal tomonidan kompensatsiya sifatida 2500 AQSH dollari bu juftlik uchun undirib berildi.

2009 yilda Saskatchewan provinsiyasi Kuvins Bench oblasti Sudi tomonidan Tribunal qarori tasdiqlandi. Saskatchivan Hukumati tomonidan bir jinsli nikohni rasmiylashtirish bu ishni amalga oshirishi kerak bo'lgan kishining dini qadriyatlariga qarshi bo'lib, uning ham Konstitutsion huquqlarini poymol qiladi degan ma'nodagi taklifiga Saskatchewan Appelatsion Sudi tomonidan ikki qonun loyihasi Mamlakat Parlamentiga taqdim qilindi. Tayinlangan ruhoniylar tomonidan bir jinsli nikohni amalga oshirishi majburiy qilib belgilanmaydi.

2006 yilda mamlakatda o'tkazilgan so'rovnoma natijasida, 57 foiz kanadaliklar FHDYo xodimlari besoqolbozlar nikohini ro'yhatdan o'tkazmaslik huquqiga ega bo'lishi kerak deb o'ylashadi va 72 foiz kanadaliklar esa diniy tashkilot nikohni qayd etish xodimlari agar bu faoliyat o'z dinlari aqidalariga

qarshi bo'ladigan bo'lsa, nikohni qayd qilmaslik huquqiga ega bo'lishi kerak deb aytganlar.

Tibbiy xizmat ko'rsatishni rad etish. Iyevoga Shohidlari diniy oqimiga ergashgan bir ota-ona bir yoshli qizlari sog'lig'i yomonlashganligi sababli, doktor maslahatiga ko'ra, qon quyilishini e'tiqod qilayotgan dinlari normalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli taqiqlaganlar. Kanada Oliy Sudi qaror qildiki, bunga o'xshagan hodisalalar qonun tomondan diniy rasm-rusurning buzilishi qonuniy deb belgilandi.

“2004 yildagi Robert Alen degan shaxs o'zi ishlayotgan Renfryu Korporatsiyasida har bir yig'inlar diniy mazmundagi ma'ruzalar bilan boshlanayotganligi haqida Sudga murojaat qilgan. Sud esa masalani Korporatsiya foydasiga hal qildi”¹⁶.

Mamlakat statistika qo'mitasi tomonidan 2006 yilda o'tkazilgan hisobotlar va 2031 yilgi bashoratlarini quyidagi jadvalda o'z aksini topgan¹⁷.

	2006		2031		O'zgarishlar foiz(%) da
	E'tiqod qiluvchilar soni	Foiz da (%)	E'tiqod qiluvchilar soni	Foizda (%)	
Jami aholi	32,522,000		42,078,000		+29.4
Xristianlar	24,340,000	74.8	27,285,000	64.8	-12.1
Rim katolik	13,830,000	42.5	15,389,000	36.6	-11.3
Jami Protestantlar	8,970,000	27.6	8,973,000	21.3	+0.0
Ortodoks Xristianlar	566,000	1.7	978,000	2.3	+72.8
Dinsizlar	5,680,000	17.5	8,780,000	20.9	+54.6
Boshqa dinlar vakillari	2,501,000	7.7	6,013,000	14.3	+140.4
Musulmonlar	884,000	2.7	2,870,000	6.8	+224.7
Yahudilar	348,000	1.1	421,000	1.0	+21.0

¹⁶Moon, Richard X. Law and religious pluralism in Canada. UBC Press, 2005. – P.230.

¹⁷www.imaginecanada.ca

Buddistlar	358,000	1.1	607,000	1.4	+69.6
Hinduiylar	406,000	1.2	1,024,000	2.4	+152.2
Sikhlar	384,000	1.2	906,000	2.2	+135.9

Avvalgi jadvaldagi ko'rsatkichlar odatiy o'sish yoki kamayish ko'rsatkichlarini namoyon qilgani ma'lum bo'ladi. 2001 yildagi 77% xristianlar 2006 yilga kelib 74.8%ga kamayadi. 2031 yilgi bashorat esa bu ko'rsatkich yanada tushib 64.8%ni ko'rsatishi kutilmoqda. Kichik diniy guruhlardan hisoblangan musulmonlar 2.7%dan 2031 yilda 6.8%ga ko'payishi kutilmoqda. Bu o'zgarishlar albatta o'z o'rnida, diniy islohotlarni yanada murakkablashtiradi va kelajakda qonunchilikka yangiliklar kiritishga sabab bo'ladi.

1.2.Kanada ta'lim tizimida diniy fanlar o'qitilishi

“Kanadada ta'lim fuqarolarning barchasi uchun ta'minlanib, federal, provinsial va mahalliy hukumatlar tomonidan moliyalashtiriladi va nazorat qilinadi. Ta'lim jarayoni provinsiyalar qonunchiligi tarkibiga kirib, o'quv dasturi har bir provinsiya tomonidan tuzib chiqiladi. Davlatda ta'lim jarayoni asosan uch qismga bo'linadi ya'ni boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim. Ta'lim 16 yoshgacha bo'lganlar uchun majburiydir, faqat Manitoba, Ontario va Nyu Brunsvik provinsiyalarida 18 yoshgacha qilib belgilangan. Bazi provinsiyalarda maktabni avvalroq, ya'ni 14 yoshda ma'lum bir belgilangan hollarda tark etish qonun tomonidan tasdiqlangan. Kanadada ham o'quv yili Sentabr oyida boshlanib, Iyun oyining oxirlarida nihoyasiga yetadi. Jami o'quv kunlari 190 kunni tashkil qiladi”¹⁸.

Boshlang'ich, umumiy o'rta va oliy ta'lim provinsiyalar tomonidan nazorat qilinib, bu jarayonda provinsiyalararo tafovutlar mavjud. Bazi ta'lim sohalari hukumatning o'zi orqali tashkillashtiriladi. Masalan, “Hinduiylar va Kanada

¹⁸Magocsi, Paul R. Encyclopedia of Canada's peoples. Society of Ontario, University of Toronto Press., 2008. – P.57.

Shimoliy Faoliyatlari” qo’mitasi mamlakatning tub aholisi ta’limi uchun javobgar hisoblanadi. “Kanada Inson resurslari va malakasini oshirish” qo’mitasi tomonidan maxsus kasblarga yo’naltirilgan (texnikum) o’qishlar tashkillashtiriladi va moliyalashtiriladi.

“Kanadaliklarning o’ndan biri o’rta ta’lim hujjatiga ega emasdir. Bularga immigrantlar bilan birgalikda mahalliy aholi ham kiradi. Shu bilan birga, aholining tahminan yettidan biri oliy ta’lim to’g’risida hujjatga ega. Ko’pgina provinsiyalarda o’rta ta’lim yoshi katta aholiga ham ta’minlanadi. Hozirgi kunda o’rta ta’lim olmaganlar va oliy ma’lumotlilar nisbati ijobiy tomonga o’zgarib bormoqda. Bunga sabab mehnat bozoridagi oliy ta’limga ega, malakali ishchilarga talabning oshishidir”¹⁹.

“Kanadada davlat budjetining deyarli 7%i ta’lim sohasiga yo’naltiriladi”²⁰. Davlat Konstitutsiyasining 1982 yilda qabul qilingan 23 bo’limida yozilishicha mamlakatda ta’lim ikki tilda ya’ni ingliz va fransuz tillarida olib boriladi. Bu ikki tilda o’qitiladigan ta’lim muassasalari har bir provinsiyada mavjud.

Din bo’yicha bo’linish. Kanadada ta’lim qanday olib borilishi mamlakat Konstitutsiyasiyasi va huquqiy jihatdan boshqa mamlakatlardan farq qiladi. Quyida mamlakatdagi diniy tashkilotlar va ta’lim tizimi orasidagi mavjud bo’lgan bog’liqliklar, ta’lim tizimining dindan ajratilishini ko’rib chiqildi.

XIX asrning ikkinchi yarmigacha Kanadada umumiy ta’lim faoliyati bevosita Protestant va Rim katolik cherkovlari ta’siri ostida bo’lgan. Professor Foster: “Kanadada umumiy ta’lim o’sishiga Protestant va Rim katolik cherkovlari ta’siri katta edi. Ta’lim falsafasi, maqsadi ta’lim muassasasini homiylikka olgan dinning yo’l-yo’riqlari, aqidalarida o’z aksini topardi.” Har bir provinsiyada din bo’yicha bo’lingan ta’lim muassasalari faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda ko’plab provinsiyalarda bunday tizim to’xtatildi. Ontario, Manitoba, shimoliy g’arbiy provinsiyalar va Saskatchewan provinsiyasidagi ba’zi shaharlarda hali hanuz dinga bog’liq davlat ta’lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Bular asosan Katolik va Protestant yo’nalishlariga aloqador o’quv dargohlaridir.

¹⁹ www.wikipedia.com

²⁰ www.statcan.gc.ca

Xususiy ta'lim muassasalarining aksariyati dinga bog'liqdir. Har bir provinsiyada xususiy diniy ta'lim muassasalariga turlicha munosabat bildiriladi. Masalan, Ontario provinsiyasida katolik yo'nalishiga asoslangan ta'lim muassasalari davlat budjetidan moliyalashtirilib, boshqa dinga asoslangan muassasalar bunday imkoniyatga ega emas. Ontarioda yahudiy, musulmon, xristian ta'lim muassasalari ham mavjud bo'lib, ular talabalarning to'lov shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. Katolik ta'lim sistemasi mamlakat Konstitutsiyasidan o'rin olganligi sababli, Kanada Oliy Sudi tomonidan bu tizimdagi maktablar konstitutsion huquqqa ega deb yuritiladi. Lekin Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson Huquqlari bo'limi tomonidan Ontariodagi yuqoridagi tizim diskriminatsiyasini vujudga keltirayotganini ta'kidlab, mazkur provinsiyaga yoki barcha diniy o'quv yurtlarini homiylikka olish, yoki bo'lmasa hech qaysi dinning o'quv dargohlarini homiylikka olmaslik taklifini bergan.

Boshqa provinsiyalarda xususiy olib boriladigan diniy maktablar qisman qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, British Kalambia provinsiyasida hukumat tomonidan shu provinsiyaning qat'iy standartlariga asosan faoliyat yuritayotgan o'quv muassasalariga davlat budjeti asosida ta'lim olayotgan har bir o'quvchiga ketadigan o'rtacha xarajatning teng yarmi miqdoridagi mablag' bilan ta'minlanadi. Ushbu provinsiyada bir qancha sikh, hinduiy, xristian va musulmon maktablari faoliyat ko'rsatadi.

Alberto provinsiyasida Charter Maktablar(biror bir korxonalar, ota-onalar va boshqalar tomonidan moliyalashtirilib va boshqarilib, umumiy o'rta ta'lim sistemasiga bo'ysunmaydigan lekin provinsiya qaramog'i ostidagi maktab turi) tarmog'i mavjud bo'lib, ular faoliyati aniq bir maqsadga yo'naltiriladi. Bu turdagi maktablar hech qachon xususiyashtirilmaydi va diniy maktablarni Charter maktablarga qo'shilmaydi. Charter maktablar provinsiya tomonidan tuzib berilgan o'quv dasturi asosida faoliyat olib borib, provinsiyaning ma'lum standartlariga javob berishi kerak. Bazi hollarda bu maktablarga erkinlik beriladi. Qolgan barcha provinsiyalarda xususiy diniy maktablar qaysidir ma'noda moliyaviy ko'mak olishi mumkin, lekin umumiy o'rta ta'lim tizimi maktablarichalik ko'p ko'mak olmaydi.

Toronto provinsiyasida Toronto Katolik Xalq Ta'limi Bo'lim va Toronto Xalq Ta'limi Bo'limi mavjud bo'lib, bu o'quv muassasalaring din bo'yicha ajratilganligini ko'rsatadi.

Diniy maktablar paydo bo'lish tarixi. Kanada ta'lim sistemasida dinning ahamiyati masalasi ko'p asrlardan buyon munozarali mavzu bo'lib kelgan. Mamlakatga Yevropadan ko'chib kelayotgan ilk immigrantlar o'zlari bilan, cherkovlar qaromog'ida faoliyat yuritadigan ta'lim sistemasini olib kelishgan. Tarixdan ma'lumki, Yevropada maktablar va oliy o'quv yurtlari an'anaga ko'ra xristian ruhoniylari tomonidan ochilardi va boshqarilardi. Kanadadagi o'ziga xos xususiyat esa, nafaqat yirik-yirik dinlar yoki ularning yo'nalishlari, balki kam sonli kishilar e'tiqod qiladigan dinlarning ham o'quv yurtlari faoliyat olib borgan.

“Kanadaning fransuzlar ishg'ol qilgan hududlarida masalan Kvebek provinsiyasida XVII asrdan boshlab jamiyatda diniy faollik oshgan. Bu provinsiyada, asosan, katolik yo'nalishi keng tarqalgan bo'lib, ta'lim sohasida ham Rim katolik cherkovi o'z nazoratini o'rnatgan va ta'sirini oshirib borgan. Kanadaning inglizlar egallagan hududlarida esa, XVIII asrdan ingliz cherkovlari, protestantlik yo'nalishi va uning bir qancha, ya'ni metodist, prizberiterian, baptist kabi tarmoqlari o'z maktablarini ishga tushira boshlashdi. Yuqoridagi barcha diniy yo'nalishlarning maqsadi bir xil, ya'ni o'z e'tiqodlarini singdirgan holda ma'lum bir soxada mutaxassislarni tayyorlash edi”²¹.

“Ontarioda ham hukumat, ham xususiy maktablar din bilan bog'liq bo'lgan. Bu provinsiyadagi ilk boshlang'ich maktab 1786 yili katoliklar tomonidan ochilgan, darslar fransuz tilida olib borilgan. Oz vaqt o'tib, ingliz cherkovlari shu yerda darslar ingliz tilida o'tiladigan o'z maktablarini ochishdi. Mamlakatning yashash sharoiti noqulayroq bo'lgan shimoliy hududlariga ham odamlar ko'chib kela boshlashadi, ko'plab turar joylari qurib shu yerlarda o'troqlashishadi. Bu o'z navbatida ta'lim beruvchi tashkilotlarga talab oshishiga sabab bo'ldi. Tez orada ingliz va fransuz xususiy maktablari ochila boshlaydi. Hukumat ham bu hududlarda o'quv yurtlari faoliyatini boshlashi uchun sharoitlar yaratdi. 1807 yilda

²¹Murphy, Terrence, and Roberto Perin, eds. A Concise History of Christianity in Canada, 1996. – P.76.

hukumat tomonidan Shimoliy Kanadada hukumat qaramog'idagi o'quv dargohlari ochish to'g'risida qaror qabul qiladi. 1840 yil o'rtalariga qadar qabul qilingan qarorlar ikki turdagi ya'ni hukumat tomonidan va xususiy faoliyat yuritadigan o'quv yurtlarini barobar qo'llab-quvvatlash to'g'risida bo'lgan. Hukumat tomonidan maktablarda ta'lim dasturida ma'naviy ta'limga e'tibor beriladigan lekin, biror dinga asoslanmagan, barcha din vakillari farzandlariga mo'ljallangan ta'lim tizimiga asos solindi. Bu tizimdan alohida bo'lgan maktablar ya'ni xususiy va boshqa o'quv dargohlari ma'lum bir din yo'riqlari asosida faoliyat yuritardi. Ikki turdagi tizimda ham o'quvchilarning aksariyat qismi xristian dinining u yoki bu oqimida bo'lgan fuqarolar edi. Hukumat maktablarida ingliz cherkovi(anglikan) va protestant yo'nalishi a'zolari asosiy qismini tashkil qilgan bo'lsa, boshqa o'quv tizimlarida Rim katolik yo'nalishiga e'tiqod qiluvchilar tahsil olishgan. Juda kamchilikni tashkil qiladigan boshqa din vakillari e'tiqodlari shu bilan birga, mahalliy tub aholi an'analari talim dasturida ochiqchasiga e'tiborga olinmagan"²².

Bilim dargohlari o'quvchilarning ma'naviyati uchun ham mas'ulligi va bunday ma'naviy ta'limotlar xristian dini asosida bo'lishi kerak degan qarash aksariyat kishilar tomonidan oddiy qabul qilinadigan g'oya edi. Hukumat ta'lim muassasalarida diniy ta'lim qonunchilik asosida tashkillashtirilib, diniy xizmat ya'ni ibodat va Injilni o'qish, va yana diniy ko'rsatmalarni o'rganishni o'z ichiga oladi. 1816 yilda hukumat qaramog'idagi barcha o'quv muassasalarida diniy ibodatlar va ko'rsatmalarni qat'iylashtirishga qaratilgan qaror qabul qilinadi. Bu qaror e'lon qilinishi bilanoq, bazi hududlarda noroziliklar yuzaga chiqadi. Chunki bu qaror fuqarolarning biror dinga e'tiqod qilish, yoki qilmaslik huquqini poymol qilar edi.

1843 yilgi hukumatning ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan qaroriga ko'ra, o'quvchilarga diniy ta'limot va ko'rsatmalarni faqat ota-onalari yoki ota-ona vazifasidagi shaxslar roziligi bilangina o'rgatiladigan bo'ldi. Agarda ota-ona yoki

²²Van Die, Marguerite. Religion and public life in Canada: historical and comparative perspectives. University of Toronto Press, 2001. – P.235.

ota-ona vazifasini bajaruvchi shaxs norozilik bildirsa, o'quvchi maktabning diniy ibodatlari va ma'ruzalarida qatnashmasligini ushbu qaror ta'minlardi.

1846 yilda Egerton Rayrson taklif qilgan, o'quv yurtlarida ta'lim turli diniy yo'nalishlar ta'siri ostida emas, balki Injil va umumiy xristianlik aqiydalari asosida olib borilishi to'g'risidagi loyihasi qonuniy kuchga kiradi. Bu qarorda yana, o'quv muassasalarida qanday diniy ta'limotlar o'qitilishini hududlardagi Ta'lim Bo'limlari emas, balki shu muassasaning homiylari ixtiyoriga topshirishni taminlab, diniy ta'lim uchun davlatning har qanday ta'minotini cheklaydi. Ushbu qaror 1944 yilga qadar diniy ta'limotlar bo'yicha hududlarda mahalliy erkin boshqaruvni ta'minladi.

XIX asr mobaynida xristian ta'lim usullari ham ma'naviy, ham diniy ta'limot sifatida hukumat o'quv muassasalarida foydalanishi qonunchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. 1850 yildagi qarorda ta'kidlanishicha, o'qituvchilar xristian e'tiqodiga amal qilishi, 1855 yildagi qaror esa har bir o'quv muassasasi o'quv kunini boshlashda va tugatishda ibodat, Injilni tilovat qilish bilan o'tkazish, "Lord'z Preyer" (maxsus ibodat) kundalik o'qishning boshlanishida bajarilishi, xristian dinining o'nta diniy farzlari har bir o'quvchiga o'rgatilishi va har haftada takrorlab turilishi to'g'risida edi. 1859 yildan rohiblarga o'quv yurtlarida o'z ta'limotlarini targ'ib etishga imkoniyat yaratilgan, hattoki rejadagi o'quv dasturi soatlari ushbu ta'limotlarni o'qitish uchun ko'paytirilardi. Shu bilan birga, o'quvchilarning ota-onalari yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar norozi bo'lgan taqdirda, yuqoridagi diniy rasm-rusumlarda qatnashmaslik huquqi amalda bo'lgan.

Hukumat o'quv dargohlarida turli dinlarning g'oyalari va ibodat qilish usullari o'qitilgan va o'rganilgan. XIX asrning boshlarida ko'plab koloniyalar birgalikda hukumat qaramog'ida bo'lgan umumiy ta'lim sistemasini tuzish masalasini ko'rib chiqishadi. Ozroq vaqt o'tgach, turli diniy sektolar mavjudligi va ular talabini kelib chiqib ta'lim sistemasini tubdan ko'rib chiqishga ehtiyoj sezildi. Diniy ta'lim umumiy o'rta ta'limning muhim bo'lagi deb qaralgan vaqtdan boshlab xristian dinining ikki yirik oqimlari katoliklik va protestantlik yo'nalishlari

tarafdorlari o'rtasida nizolar kelib chiqa boshladi. Mamlakatning shimoliy hududlarida kamchilikni tashkil qiladigan katoliklar protestantlarning umumiy maktablardagi o'z aqidalariga xos ta'limotlarini qabul qila olishmadi va janubiy provinsiyalardagi kamchilikni tashkil qiladigan protestant yo'nalishi vakillari Rim katolik aqidalarini qabul qila olishmadi. Shu sababli, har ikki hududda ham protestant, ham Rim katolik yo'nalishi ta'lim sistemasiga kiritilgan maktablar ochila boshlandi.

Dengiz bo'yidagi uchta provinsiyada asosan protestantlikka yo'naltirilgan maktablar tarixdan faoliyat yuritib kelgan va hozirda ham bu provisiyalarda faqat protestant maktablarigina mavjud. Nyufaundlend provinsiyasida nafaqat yirik bo'lgan katolik, protestant maktablari, balki bu yo'nalishlarning bir qancha kichik-kichik guruhlarining ham o'z maktablari mavjud bo'lgan. Lekin, bu kichik guruhlar protestant yoki katolik maktablari tarkibiga kiritildi. Manitoba provinsiyasida esa, katolik yo'nalishi ta'lim muassasalari 1891 yilda tugatildi va biroz vaqt o'tib protestantlik yo'nalishi ta'lim muassasalari bilan qo'shildi. British Kalambiya provinsiyasida 1872 yildan boshlab dindan ajratilgan maktablar ochila boshladi. Yana oz fursatdan so'ng hukumat qaramog'idagi protestant yo'nalishidagi maktablarning aksariyati diniy ta'sirsiz ya'ni dindan ajratilgan ta'lim tizimiga o'ta boshladi. Chunki Kanada fuqarolarining davlatdan cherkovni ajratishga rozilik bildirishgan edi, shuning bilan umumiy xalq ta'limi strukturasi diniy aloqadorlikdan holi bo'ldi. 1990 yildan boshlab Ontario ta'lim sistemasidan oshkora barcha diniy holatlar to'htatildi. Nyu Faundlend va Labrador provinsiyalaridagi uchta yirik diniy yo'nalishi, katolik, protestant, pentekostal, ta'limi to'xtatildi. Kvebek provinsiyasida katolik, protestant maktablari fransuz tili, ingliz tili maktablariga o'zgartirildi.

“1900 yillar boshlarida o'quv muassasalarida diniy ta'limni yanada kuchaytirishga qaratilgan ko'plab harakatlar bo'ldi. Bunday harakatlar bo'lishiga sabab, I va II Jahon Urushi natijasida kishilarning qattiq tushkunlikka tushishida dindan ruhiy madad olishi edi. 1944 yilda Ontario provinsiyasidagi ta'lim mutasaddilari diniy maruzalarni kundalik o'quv dasturiga qo'shadi va har bir

o'qituvchi bu faoliyatga mas'ul qilib belgilanadi. Bu esa, dinning ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan harakatlardan birining amalga oshirilishi edi. O'quv dasturida haftasiga ikki yarim soat diniy ta'limotlarga ya'ni asosan Injilni o'rganishga ajratiladi. Mahalliy diniy hodimlari diniy ta'limotlarni tushuntirish maqsadida o'quv muassasalariga taklif qilinishi mumkin. Har bir sinf uchun Davlat Ta'lim Vazirligi tomonidan bir qator "O'qituvchilar uchun diniy ta'lim qo'llanmasi" ishlab chiqilgan bo'lib, hukumat o'quv yurtlarida diniy ta'lim shu qo'llanmalar asosida olib borilardi"²³.

Deyarli yigirma besh yil mobaynida ushbu o'quv sistemasi amal qilingan bo'lsa, shu yillar davomida fuqarolar tomonidan ko'plab noroziliklar bildirildi. Chunki bu tizim diniy biryoqlamachilikka asoslangan bo'lib, barcha fuqarolar uchun mos emas edi. Diniy ta'lim berish oson bo'lmaganligi sababli, ko'plab din o'qitiladigan o'quv muassasalari soni ham rasmiy, ham norasmiy tarzda qisqardi.

1960 yillarga kelib, o'quv muassasalarida diniy ta'limotlarni yanada kuchaytirish va diniy ta'limni o'quv dasturidan umuman olib tashlash tarafdorlari paydo bo'ldi, ular o'rtasida ko'plab bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Birinchi guruh diniy ta'limotlarni kuchaytirish bilan an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolishga urg'u bersa, ikkinchi guruh mamlakatdagi fuqarolarning diniy e'tiqodlari vaqt o'tishi bilan xilma-xil bo'lib borishi natijasida, diniy ta'lim sistemasidan ajratib, hamma uchun yagona tizimni yaratish fikri bilan chiqdi. Ikkinchi guruh diniy ta'lim olishni xohlamagan o'quvchilarga diniy darslarga qatnashmaslik huquqini berish noo'rin deb topishdi, chunki boshqa tengqurlaridan ajralib qolish yoshlar psixologiyasiga va hissiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

1966 yilda yuqoridagi mojarolar tufayli hukumat tomonidan janob Keiller Makey boshchiligida maxsus komissiya tuziladi. Bu komissiyaning maqsadi o'quv yurtlarida diniy ta'limning holati va o'quv dargohlarining majburiyatlarini nazorat qilish edi. Komissiya nazorat tugagach, bir qancha takliflar bilan chiqadi ya'ni boshlang'ich sinf o'quv dasturidan haftasiga ikki yarim soat qilib belgilangan diniy

²³Choquette, Robert. Canada's religions: an historical introduction. University of Ottawa Press. 2004.

darslarni olib tashlash, o'quv kunini Milliy Madhiya va ibodat duosini sinfxonada aytish bilan boshlash, yuqori sinf o'quvchilari uchun esa, haftasiga bir marotaba ihtiyoriy diniy fan belgilash, o'quv dargohidagi umumiy yig'ilishlarni Davlat Madhiyasi va ibodat duolari bilan boshlash. Shuningdek²⁴:

- 1) Ma'naviy darslar boshlang'ich ta'limning boshlanishidan o'rta ta'lim oxirigacha ta'lim dasturida mavjud bo'lishi;
- 2) O'quv muassasalari barcha dinlar to'g'risida ma'lumot berilishi va boshqa dinlarga hurmatni o'rgatishi lozim;
- 3) Tarix sohasiga yo'naltirilgan o'rta maktablarda jahon dinlariga ba'g'ishlangan darslar kiritilishi;
- 4) O'qituvchilarga o'zlari uchun ham, dars jarayonida qo'llash uchun ham qadriyatshunoslik, ma'naviyat va diniy fanlar o'qitilishi.

Ushbu takliflar hukumat tomonidan rasmiy qabul qilinmagan bo'lsada, o'quv dasturlarini o'zgartirilishiga katta hissa qo'shdi. 1971 yilda "Jahon Dinlari" deb nomlangan yangi fan sifatida yuqori kurs talabalari o'quv dasturiga qo'shildi. Shu davr mobaynida ma'lum bir dinga yo'naltirilgan o'quv yurtlaridan tashqari, turli o'quv muassasalarida jahon dinlarini qiyosiy o'rganish bo'limlari ochila boshladi. Bugungi kunda bunday bo'limlar Kanadaning ko'plab o'quv maskanlarida mavjud.

1970 va 1980 yillar oralig'ida mamlakat fuqarolarining diniy xilma xilligi keskin oshib bordi. Hukumatning mamlakatda turli madaniyatlilikni qo'llab-quvvatlash siyosati natijasida jahonning har joyidan har xil millat, din vakillarining immigratsiyasi mamlakatda turli etnik guruhlar madaniyati to'qnashishiga sabab bo'ldi. Ko'plab hukumat qaramog'idagi o'quv muassasalari bir dinga asoslangan, ta'limga biryoqlama yondashuvni to'xtatib, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy, axloqiy darslarga urg'u berishdi. Shundan buyon qonunchilik tomonidan hukumat o'quv muassasalarini dinga bog'lash to'risida loyihalar taqdim qilinmadi.

²⁴ Beaman, Lori G. Religion and Canadian society: traditions, transitions, and innovations. Cambridge Scholars Publishing, 2006. – P.340.

Hukumat qaramog'idagi maktablarda bugungi kundagi vaziyat. 1980 yildagi Ontario Appilatsion Sudi ko'rib chiqqan ikki ishi natijasida hukumat ta'lim muassasalarida (xususiy yoki maxsus ta'lim muassasalari bundan mustasno) din haqida o'qitilishi mumkinligini belgiladi. Lekin, bu degani ma'lum bir dinnigina o'rgatilib, uni o'quvchilar ongiga singdirish degani emas edi. Sud ko'rgan ishlarning birinchisi, hukumat maktablarida har o'qish kunini "Lord's Prayer"(xristian dinidagi eng muhim ibodatlardan biri) yoki boshqa ibodatlar bilan boshlash, ikkinchisi maktablarning o'quv tizimida diniy dasturlardan foydalanish huquqi to'g'risida edi. 1990 yil 6 dekabrda Ontario Ta'lim Vazirligi matbuotda e'lon qilishicha, jahon dinlarining har bir insonga yoki biror bir jamiyatga e'tiqod usullari va maqsadlarini o'rgatilishi mumkin edi. Shunday ekan, biror bir dinnigina o'qitilib, uning boshqa dinlardan ustunligi haqidagi targ'ibotlar ta'qiqlanadi. Kanada Fuqarolar Erkinligi Assotsiatsiyasi tomonidan tuzib chiqilgan va Ontario Ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan sakkiz qoidalar quyidagilardir²⁵:

1. O'quv yurti biror bir din haqida o'rgatishi mumkin, lekin unga ergashishni o'rgatish emas;
2. O'quv yurti o'quvchilarga barcha dinlarni tanishtirishi mumkin, lekin biror bir dinga ergashishga majbur qilmaydi;
3. O'quv yurti dinga bir ko'rsatma sifatida qaraydi, ta'sir etish vositasi emas;
4. O'quv yurtining vazifasi barcha dinlar haqida o'qitish, lekin biror bir dinga targ'ib qilish emas;
5. O'quv yurtining barcha dinlarga bo'lgan munosabati ilmiydir, lekin biror bir dinga yonbosish emas;
6. O'quv yurti o'quvchiga umum e'tirof etilgan diniy ma'lumotlarni berishi mumkin, lekin boshqa bir butunlay yangi ta'limotni uqtirish emas;
7. O'quv yurti o'quvchilarning barcha dindan xabardorligiga erishishi kerak, lekin biror dinni qabul qilishga undash emas;

²⁵ Beaman, Lori G. Religion and Canadian society: traditions, transitions, and innovations. Cambridge Scholars Publishing, 2006. – P.4-2.

8. O'quv yurti o'quvchilarni turli e'tiqodlardan xabardor qilishi, lekin biror bir e'tiqodga bo'ysuntirishi emas.

Ta'lim Vazirligi qarorlari ostida biror e'tiqodning majburan uqtirilishini oldini olish natijasida to'la dunyoviy o'quv sistemasini tashkil etish g'oyasi yotadi. Ko'plab kanadaliklar norozilik bildirgan ushbu tizim AQShning: "o'quv dargohlari o'quvchilarga biror bir din, yoki ko'plab turli dinlar to'g'risida ma'lumot berishi yaxshi lekin, o'quv yurti bir dinning boshqasidan ustun deb hech qachon targ'ibot qilmasligi, biror bir dinning qadriyatlarini kamsitmasligi va yuqori darajaga olib chiqmasligi kerak" qabilidagi siyosatiga mos keladi.

Yuqoridagi ikki qaror Kanada Inson Huquqlari va Erkinliklari Hartiyasiga ko'ra fuqarolar diniy erkinligini ta'minlar edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XV asrda Kolumb tomonidan kashf qilingan Shimoliy Amerika materigida joylashgan Kanada bilan bir qatorda, AQSh, Meksika va boshqa mamlakatlari ham aholining diniy xilma xilligi bo'yicha bir-biriga yaqin ko'rsatkichlarni ko'rsatishadi. Aholining bunday xilma xilligiga sababchi bo'lgan tarixiy jarayonlar bu mamlakatlarda deyarli bir xil kechgan.

Kanada ta'lim tizimi bugungi kunda yuqori o'rinlarda turadi. Biz yuqoridagi rejada mamlakat bunday natijalarga osonlikcha erishmaganligini ko'rib chiqdik. Bu ishimiz davomida mamlakatimiz va Kanada o'rtasida diniy sohada o'xshashlik va farqlarni ko'rib chiqdik. Masalan, yurtimiz hududida XIX asrgacha davlat va jamiyat qurilishida Islom dinining ahamiyati yuqori bo'lgan edi, Kanadada esa XIX asrgacha xristian dini, undagi yo'nalishlar roli muhim bo'lgan. E'tibor beradigan bo'lsak, shu davrlar mobaynida yurtimizda islom dini ta'siri ostida tashkillashtirilgan va boshqarilgan madrasa va masjidning ta'lim tizimida roli yuqori bo'lgan bo'lsa, Kanadada xristian dinining protestant va Rim katolik yo'nalishlari ta'lim tizimini to'la boshqarib kelgan. Bugungi kunda vijdon erkinligi har ikki davlatda ham ta'minlangan.

II BOB KANADADA DINIY TASHKILOTLAR FAOLIYATI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA.

2.1 Kanadadagi turli diniy konfessiyalar.

Vijdon erkinligi – insonning ajralmas huquqlaridan biridir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida “Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o‘z dini yoki e‘tiqodini o‘zgartirish erkinligi va ta‘limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e‘tiqodiga yakka tartibda, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi”, deb ko‘rsatilgan.

Mazkur umuminsoniy printsiplar Konstitutsiyamizda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, uning 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi hamda diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Sobiq ittifoq davrida respublikamizda bor-yo‘g‘i 89 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozirgi kunda respublikamizda 16 ta konfessiyaga oid jami 2051 dan ortiq diniy tashkilotlar ro‘yxatga olingan.

Davlatimiz tomonidan mazkur diniy tashkilotlarning faoliyat olib borishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 61-moddasida diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi, shuningdek, davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmasligi belgilangan.

2006 yilda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, bugungi kunda Kanada hali hanuz Rimkatolik va protestant yo‘nalishlari keng tarqalgan hududlardan biri hisoblanadi. Har o‘nta kanadalikning yettitasi o‘zini yoki katolik, yoki protestantlikka e‘tiqod qilishini aytgan. Mazkur so‘rovnomadan so‘ng protestantlikka e‘tiqod qiluvchilar soni muntazam kamayib borish tendensiyasini ko‘rsatganini kuzatishimiz mumkin. Katoliklar esa oz miqdorda oshgan bo‘lsada, mamlakatdagi umumiy ulushi kamaygani namoyon bo‘lmoqda.

Shu vaqtning o'zida, islom, hinduiylik, sikhiylik va buddaviylikka e'tiqod qiluvchi kanadaliklar soni sezilarli oshganini kuzatsak bo'ladi. Oxirgi o'n yillardagi mamlakatning diniy qiyofasi o'zgarishlariga sabab, Kanadadagi diniy xilma xillikka sababchi bo'layotgan immigrantlar oqimining o'zgarishidir. Shuningdek, 70 yil ilgari mamlakatda dominant bo'lgan Protestant yo'nalishi tarkibidagi Anglikan va Birlashgan Cherkov tarmog'iga e'tiqod qiluvchi aholining qarib borishi, ular o'rniga yangi din vakillari tabiiy va sun'iy ravishda o'sishi ham bunday hollarga sabab bo'lmoqda.

Rim katolik yo'nalishiga ergashganlar 1991 yilda umumiy aholoning 45%ini, 2001 yilda 43%ini va 2006 yilda 42.5%ini tashkil qildi. Katoliklarning sezilarli kamayish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Protestantlarda ham deyarli shunday ko'rsatkichlar, ya'ni 1991 yilda umumiy aholining 35%i, 2001 yilda 29%i va 2006 yilda 27.6 %ni tashkil qilgan. Bu ikki yo'nalishning umumiy a'zolari 1991 yilda 80% aholidan tashkil topgan bo'lsa, o'n yil o'tib 72%ni va 2006 yilda deyarli 70%dan iborat bo'ldi.

Shu bilan birga mamlakatda biror bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar keskin ortib bormoqda. 2006 yilda 17.5 %ni tashkil qilgan dinsizlar miqdori 2001 yilda 16 % bo'lgan, 1991 yilda esa bu ko'rsatkich 12.5 edi. Bundan ayon bo'ladiki, Kanadada sanoat, taraqqiyot rivojlangani sari ijtimoiy hayotda dinning roli susayib bormoqda.

*Mamlakatdagi asosiy diniy konfessiyalar ro'yxati va e'tiqod qiluvchilar miqdori*²⁶.

Diniy guruhlar	Diniy guruhlar tarkibi	E'tiqod qiluvchilar miqdori (%) da)
Katolik	Rimkatolik cherkovi, Ukrain katolik cherkovi, Polyak katolik cherkovi, va boshqalar	42.5
Protestantlar	Birlashgan cherkov, Prezbyterianlik, Luseranlik, Anglikanlik, Baptistlik, Iyegova shohidlari yo'nalishi, Pentekostallik, Murmurlik, va boshqa Protestantlar	27.6

²⁶www.statcan.gc.ca

Sharqiy Ortodaksal yo'nalishi	Grek Ortodoks, Ukrain Ortodoks, Rus Ortodoks, va boshqa Ortodaksal yo'nalishlar	1.7
Sharqiy dinlar	Islom, Buddizm, Hinduiylik, Sikhiylik, Bahoilik va boshqalar	6.3
Yahudiylar		1.1
Boshqalar	Ateistlar, Erkin fikrlovchilar, Gumanistlar, Yangi asr yo'nalishi, Ilm-fanshunoslik, Yangi fikr, Mahalliy hinduiy yoki Inuit qabilalari, va boshqalar	2.9
Dinsizlar		17.5
Bir dinni tanlamaganlar yoki so'rovnomani to'ldirmaganlar		0.4

Rim katolik yo'nalishi eng ko'p miqdordagi aholi e'tiqod qiladigan yo'nalishdir. 1991-2001 yillar mobaynida protestant yo'nalishiga ergashgan aholi soni kamayib borgan bir holatda, Rim katolik yo'nalishiga e'tiqod qiluvchilar soni ozroq o'sishga erishdi. "Katoliklar 4.8%ga ko'payib, 12.8 millionni tashkil qilishdi. Protestantlar soni esa, 8.2%ga tushib, 8.7 millionga yetdi"²⁷.

100 yildan oshiq muddat mamlakatda protestantlar katoliklardan ham ko'pchilikni tashkil qilgan. 1901 yilgi statistikaga ko'ra, protestantlar jami aholining yarmidan ko'prog'ini ya'ni 56 %ini tashkil qilgan bo'lib, shu davrda katoliklar umumiy aholining 42 %dan iborat edi. Bu holatga sabab, o'sha paytdagi immigratsiya holatidan kelib chiqqan. 1961 yilga qadar yevropalik immigrantlarning asosiy qismi Birlashgan Qirollik, Italiya, Germaniya va Niderlandiya davlatlaridandan bo'lishgan. Bizga ma'lumki bu davlatlarda protestantlik asosiy diniy yo'nalish hisoblanar edi.

Lekin, 1971 yilga kelib Konfederatsiya tashkil qilinganidan buyon ilk marotaba Kanadada katoliklar miqdori protestantlardan oshib ketdi. Chunki immigratsiya manbalari o'zgarayotgan edi. 1971 yilda Rimkatolik yo'nalishi a'zolari umumiy aholining 46%ini, protestantlar esa 44%ini tashkil qilishdi. Protestantlik yo'nalishi

²⁷Fay, Terence J. A History of Canadian Catholics. 2002. – P.45.

1921 yilda umumiy aholining 56% miqdoridagi ergashuvchilarga ega bo'lgan. Katolik yo'nalishi tarafdorlari 1971 yilda eng yuqori natijaga erishdi.

Katoliklarning bunday tez sur'atda o'sishiga sabab immigratsiya edi. Kanadaga 1991-2001 yillar davomida kelgan 1.8 million immigrantning 23%i katoliklar edi. Bu ko'rsatkich boshqa diniy yo'nalishlar orasida eng yuqorisi edi. Oxirgi 50 yilda katolik immigrantlar oqimi kamaygan bo'lishiga qaramasdan, 1960 yildan buyon ko'chib kelayotgan immigrantlarning katta qismini katoliklar tashkil qilgan. 1961 yilgacha Kanadaga kelgan immigrantlarning 39%i katoliklar bo'lib, 1961-1970 yillar davomida ular 43 %ga yetishdi. 1970-1980 yillarda ko'chib kelganlarning deyarli 1/3 qismi katolik bo'lgan.

2001 yilda kanadalik katoliklarning deyarli yarmi Kvebikka to'g'ri kelgan bo'lib, provinsiya aholisining 83 %ini tashkil qilgan. Bu esa davlatdagi eng ko'p katoliklar mavjud bo'lgan provinsiya hisoblanadi. Nyu Bryunsvik provinsiyasining ham 54%i katoliklardan iborat bo'lgan. Kanada bo'ylab bu yo'nalish a'zolari notekis tarqalgan. Masalan, British Kalambiya provinsiyasining 17% aholisi katolik bo'lib, mamlakatdagi eng kam ko'rsatkich edi.

Protestantlik hozirgi kunda e'tiqod qiluvchilar miqdoriga ko'ra mamlakatda ikkinchi o'rindadir. 2001 va 2006 yildagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, Kanadada a'zolari soniga binoan katoliklardan so'ng protestantlar turadi. "E'tiqod qiluvchilar soni protestantlikning eng yirik oltita tarmog'ida sodir bo'ldi. Faqatgina bir tarmoq ya'ni, baptilik 90 yillarda 10%ga oshib, umumiy a'zolari 729500 taga yetdi"²⁸.

Eng ko'p kamayish presbiterianlarda sodir bo'ldi. Ular 36%ga kamayib 409800 taga ozaydi. Pentekostallar ikkinchi darajadagi kamayishni boshlaridan o'tkazdilar ya'ni, 15%ga kamayib, ularning umumiy soni mamlakatda 369500 taga yetdi. birlashgan cherkovda esa a'zolar 8%ga kamayib 2.8 million kishini tashkil qilishdi. Anglikanlar ham o'z navbatida 7% kamayishni ko'rsatib, umumiy a'zolari 2 millionni o'z ichiga qamrab oladi. Luseranlar 5 %ga kamaydi va 606600 kishidan iborat tarmoqqa aylandi.

²⁸Beaman. Religion and Canadian society: traditions, transitions, and innovations. 2006. – P.129.

Ba'zi kichik protestant tarmoqlari esa a'zolarning eng ko'p o'sish sur'atiga yetishdi. "1991 yildan buyon eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib kelayotganlar ichiga yevangelik missionerlik cherkovi vakillari 48%ga o'sib, 66700 kishini, gutteritlar 22% o'sib, 26300 kishini, adventistlar 20% o'sib, 62900 kishini xristianlik va missionerlik hamkorligi 12 %ga o'sib 66300 kishini tashkil qildi"²⁹.

Protestantlikdagi bunday kamayishga ikki sabab mavjud bo'lib, ulardan biri immigratsiya bo'lsa, ikkinchisi ko'plab yoshlar bu yo'nalishga e'tiqod qilmayotganidir. Kanadadagi protestantlikka e'tiqod qiluvchilarning asosiy qismi 1961 yilgacha Yevropadan kelgan immigrantlar hisoblanadi. 1961 yildan keyin Kanadaga ko'chib kelayotgan protestantlar miqdori keskin kamaydi. Shu yilgacha har o'n immigrantning to'rttasi (39%i) protestant edi. 90 yillarga kelib, har o'n immigrantdan bittasi (11%i) bu yo'nalishga e'tiqod qiluvchilarni tashkil qildi. Yana sabablarga keladigan bo'lsak: mamlakatda o'zini hech qaysi yo'nalish tarafdori emas, balki oddiy xristian deb hisoblaydiganlar va hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar soni tobora ortib borishidir.

2001 yilda o'zini protestant deb hisoblaydigan aholining o'rtacha yoshi 42ni ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich mamlakat umumiy aholisining o'rtacha yoshi bo'lgan 37 dan yuqori edi. Protestantlikning kamayib borayotgan tarmoqlari ya'ni, anglikan va birlashgan cherkov tarmoqlari vakillarining o'rtacha yoshi 44ni, luseranlar 43ni, presbiterianlar eng katta yosh 46ni ko'rsatdi.

Bunga zid ravishda, ko'payib borayotgan protestant tarmoqlar vakillari asosan yoshlardan iborat. 2001 yilda gutterinlarning o'rtacha yoshi 22ni, murmorlar 29ni, xristian va missionerlik hamkorlik tarmog'i vakillari 34.5 yoshni, advantistlar 35.5ni namoyon qilishgan. Bu barcha tarmoqlar vakillarining o'rtacha yoshi mamlakat umumiy aholisining o'rtacha yoshidan kichik bo'lganligini ko'rsatadi.

Kanadada Islom. Musulmonlar davlat tashkil bo'lgandan buyon Kanadada mavjud bo'lishgan. 1867 yilda tashkil etilgan davlatda 1871 yil o'tkazilgan

²⁹ Wendy Fletcher. Canadian Anglicanism and Ethnicity. In P. Bramadat & D. Seljak, Christianity and Ethnicity in Canada. Toronto: Pearson Longman, 2005. – P. 287.

so'rovnomaga ko'ra, fuqarolar orasida 13 ta musulmon bor bo'lgan. Bu yerda birinchi masjid 1938 yilda Edmonton shahrida qurilgan va u yerda 700ga yaqin musulmonlar istiqomat qilgan. Bu bino hozirgi kunda Fort Edmond Park muzeyining bir qismidir. Ikkinchi Jahon urishidan so'ng musulmonlarning immigratsiyasi sezilarli ortdi. Ayniqsa, 1960 yildagi Yevropaga immigratsiya cheklanishi natijasida Kanadaga musulmonlar immigratsiyasi yanada ortdi. 1991 yilda umumiy aholining 0.9%ini tashkil qilgan musulmonlar, 2001 yilda 2%ni ya'ni 579740 kishini, 2006 yilda esa 2.7 %ni ya'ni 0.8 million kishini tashkil qildi. Pew Tadqiqot Markazining 2010 yildagi ma'lumotiga ko'ra, kanadalik musulmonlarning 65%i Sunni va 15%i Shialar bo'lib chiqdi. Davlat statistika qo'mitasining bashoratiga ko'ra 2031 yilga borib bu ko'rsatkich 6.8%ga yetadi. 2008 yilda Kanada Bosh vaziri Stefen Harper o'z innaguratsiya marosimini Kanadadagi eng katta Bayt Unnur masjidiga Ahmadiyya Jamoasi rahbari bilan tashrif buyuradi.

Provinsiyalar/hududlar	Musulmonlar
Ontario	3.1
Alberta	1.6
Qvebik	1.5
British Kalambiya	1.4
Manitoba	0.4
Norzvest Territories	0.4
Nova Skotia	0.3
Saskatchivan	0.2
Yukon	0.2
Nyu Brunsvik	0.1
Nyufaundlend va Labrador	0.1
Nunavut	0.1
Prins Edvard oroli	0.1

Kanadadagi asosiy Islom dini tashkilotlariga³⁰:

³⁰www.imaginecanada.gc.ca

- ❖ Kanda Islom kongressi
- ❖ Kanada Islom Oliy Konsulligi
- ❖ Kanada musulmonlar birlashmasi
- ❖ Kanada musulmonlar assotsatsiasi
- ❖ Ahmadiyya diniy jamoasi va boshqalar kiradi.

Bu tashkilotlar orasida Kanada Islom kongressi mamlakatdagi eng katta nodavlat, notijorat islomiy tashkilot bo'lib, hech qanday tashqi homiylarga tayanmaydi. Uning tarkibiga ham Sunniy, ham Shia bo'lgan musulmonlar kiradi. Bu tashkilot boshqa tashkilotlardan Ortotoksal Islomiy tashkilotligi bilan farqlanadi va shtab kvartirasi Ontario provinsiyasi, Ottava shahrida joylashgan. “1994 yildan boshlab mamlakatning turli qismlaridagi musulmon ulamolar 1998 yilga kelib Kanada Islom kongressi deb nomlanadigan tashkilot tuzishga erishdilar. Tashkilotning yillik budjeti 100.000 AQSh dollarini tashkil qiladi”³¹.

Kanadada Yahudiylik. Yahudiylar ham Kanadaga birinchilardan bo'lib kelgan xalqlardan biri hisoblanadi. “Kanadalik yahudiylar haqida ilk ma'lumot 1754 yilga oid Britaniya armiyasi haqidagi hujjatda namoyon bo'ladi. 1760 yilda General Jeffrey Amherst Montreal shahrini Britaniyaga bo'ysundirish uchun jangda faol qatnashib, shaharni bo'ysindiradi. General qo'l ostida to'rtta yahudiy ofitserlari mavjud edi. Ular orasida hali hanuz “kanadalik yahudiylar otasi” nomi bilan esga olinadigan Leytinant Aaron Hart bor edi. 1807 yilda Ezekiel Hart Kanadaning Britaniya qaramog'idagi hududlarda Qonunchilik lavozimiga saylangan birinchi yahudiy edi. Hart qasamyodini xristianlikning injiliga qo'lini qo'ygan holda qilmadi, balki yahudiylik Tavrotiga qo'lini qo'ygan holda qasamyod qiladi. Qasamyodning ertansi kunidanoq kuchli noroziliklar paydo bo'ldi. Hartning lavozimidan olib tashlanishga majbur bo'lindi. 1768 yilda Kanadada birinchi yahudiy ibodatxonasi sinagoga Montrealda qurilib, faoliyatini boshlaydi. Bu sinagoga ispan va partugal sinagogasi edi. Ezkiel Hart ishi yuzasidan 1832 yilga

³¹ www.wikipedia.com

kelib, yahudiylarga ham xristianlar kabi siyosiy huquq va erkinliklarni berish to'g'risida qonun qabul qilindi"³².

1880 yildan Yahudiylarning Kanadaga immigratsiyasi keskin ortdi. Chunki Rossiyadagi qirg'inbarotlar va anti-semitik g'oyalarning keng tarqalishi edi. 1880-1930 yillar oralig'ida yahudiy fuqarolar 155000ga yetdi. 1872 yilda Genri Nazan davlat Parlamentining birinchi yahudiy a'zosiga aylandi. U Viktoriya provinsiyasidan vakil edi.

Provinsiyalar	Yahudiylar ulushi (foizda)
Onatrio	1.7
Kvebek	1.3
Manitobo	1.2
British Kalambiya	0.5
Alberta	0.4
Nova Skotia	0.2
Yukon	0.1
Nyu Brunsvik	0.09
Saskatchevan	0.09
Norzvest Teritorias	0.07
Prins Edvard oroli	0.04
Nyufoundlend va Labrador	0.03
Nunavut	0.0

“Ikkinchi Jahon urushida 20000 kanadalik yahudiylar qatnashdilar. 40000ga yaqin Holokostdan jabr chekkanlar 1940 yilning ohirlarida Kanadaga hayotlarini qaytadan boshlash uchun ko'chib keldilar”³³.

Bugungi kunda Kanada yahudiy jamoasi a'zolari ko'pligi bo'yicha jahonda oltinchi o'rinda turadi. Ular davlatning har ikki rasmiy tilida muomala qilishadi.

³² Brown, Michael The Beginning of Jewish Emancipation in Canada: The Hart Affair. Michael, vol. 10, 1986, - P.155.

³³ www.wikipedia.com

Yahudiy tilini diniy marosimlardan tashqari ishlatayotganlar soni ham ortib bormoqda. Kanadada yahudiylarning asosiy qismi Ontario va Kvebik provinsiyalarida istiqomat qilishadi. Toronto shahrida eng katta yahudiylar markazi faoliyat yuritadi. Yaqin kunlarda anti semitizm mamlakatda katta muammolarga olib kelmoqda. 2009 yilda anti semitik xatti-harakatlar besh barovar oshdi.

Kanadada hinduiylik. Kanadalik barcha hinduiylar asosan quyidagi tarmoqlar asosida shakllangan:

- ❖ British Kolambiya provinsiyasiga tahminan 100 yillar ilgari ko'chib kela boshlagan hindistonlik immigratlar bo'lib, ular Hindistonning turli burchaklaridan kelgan hindlardan iborat. Gujaratlik va punjabliklar bu guruhning asosiy qismni tashkil qiladi.
- ❖ Ikkinchi hinduiylarning tarmog'i Shri Lankadir. 1940 yillarda shri lankalik bir necha yuz Tamillar Kanadaga ko'chib kela boshladi. 1983 yilda Shri Lankadagi Tamillar qo'zg'olonidan so'ng, ularning ommaviy ravishda Kanadaga ko'chib kelishi boshlandi.
- ❖ Uchinchi guruh esa, oxirgi 50 yildagi mamlakatda Krishna Harakati va boshqa tashkilotlarning targ'ibot-tashviqotlari natijasida hinduiylik diniga kirganlar hisoblanadi.

2001 yildagi Davlat statistika qo'mitasi tadqiqotlariga qaraganda Kanadada 297200 ta hinduiy mavjud bo'lgan³⁴. Nodavlat, notijorat tashkilot bo'lgan Kanadani O'rganish Assotsatsiyasi ma'lumotlariga qaraganda: 2006 yilda mamlakatda hinduiy aholi 372500 taga oshgan va umumiy aholining 1.2 %ini tashkil qilgan.³⁵ Hinduiylarning asosiy qismi Ontarioning Toronto, Brampton, Gamilton, Ottawa shaharlarida, Kvebek provinsiyasining Montreal shahrida, British Kalambiya provinsiyasining Vankuver shaharlarida yashashadi.

*2001 yildagi statistikaga ko'ra Kanadada hinduiylar miqdori*³⁶.

Provinsiyalar	Hinduiylar miqdori (foizda)
Ontario	217555

³⁴ Religions in Canada: Highlight Tables, 2001 Census. Statistics Canada. 2004. Retrieved May 23, 2006.

³⁵ <http://www.acs-aec.ca/Polls/30-03-2005.pdf>

³⁶ Population by religion, by province and territory (2001 Census)

British Kalambiya	31500
Kvebek	24525
Alberta	15965
Manitoba	3835
Saskatchevan	1585
Nova Skotia	1235
Nyu Brunsvik	475
Nyufoundlend va Labrador	405
Norzvest Teritories	65
Prins Edvard oroli	30
Yukon	10
Nunovut	1
Kanada (umumiy)	297200

Kanadada Buddizm diniga e'tiqod qiluvchilar. Kanadada buddistlar umumiy aholining juda kam qismini tashkil qiladi. Shunga qaramay ular soni keskin ortib bormoqda. 2001 yilgi ma'lumotda 300346 buddist Kanadada mavjud bo'lgan bo'lsa, oradan besh yil o'tib ularning soni 607000ga yetdi³⁷. Kanadada buddizmga bir asrdan oshiqroq vaqtdan beri ibodat qilib kelishadi va bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni bugungi kunda eng tez o'sib bormoqda. XIX asrda xitoylik ishchilar orqali Kanadaga kirib kelgan. Zamonaviy buddizm XIX asr oxiridagi yapon immigratsiyasiga borib taqaladi³⁸. Birinchi yapon buddizm ibodatxonasi 1905 yil Vankuverdagi Ishikava mehmonxonasida ochilgan³⁹. Vaqtlar o'tishi bilan, yapon buddizmining Jodo Shinshu tarmog'i Kanadalik buddistlarning asosiy qismi e'tiqod qiladigan dinga aylandi. Shu tarmoqning a'zolarining tashkiloti mavjud.

³⁷ <http://www40.statcan.gc.ca/101/cst01/demo30a-eng.htm>

³⁸ The Canadian Encyclopedia: Buddhism

³⁹ A Journalist's Guide to Buddhism

Kanadaning buddist aholisi miqdori provinsiyalar bo'yicha. (2001) ⁴⁰.

Provinsiyalar	Buddistlar soni
Ontario	128321
British Kalambiya	85540
Kvebek	41380
Alberta	33410
Manitoba	5745
Sakatchivan	3050
Nova Skotia	1730
Nyu Brunsvik	545
Nyufoundlend va Labrador	185
Norzvest Territories	155
Prins edvard oroli	140
Yukon	130
Nunavut	15
Kanada (umumiy)	300346

Kanadada Sikhiylik. Hind-kanadaliklar orasida sikhiylik e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan eng yirik dinlardan biridir⁴¹. 2001 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 278410 Sikh Kanadada mavjud bo'lgan. Sikhlar 1887 yildan Kanadada yashab kelishadi.

Kanadada Sikhlarining provinsiyalar bo'yicha miqdori⁴².

Provinsiyalar	Sikhlar soni
British Kalambiya	135310
Ontario	108785
Alberta	23470
Kvebek	8225
Manitoba	5485

⁴⁰ <http://www40.statcan.gc.ca/101/cst01/demo30a-eng.htm>

⁴¹ "Sikhism in Canada". The Canadian Encyclopedia

⁴² Population by religion, by province and territory (2001 Census)

Saskatchevan	500
Nova Skotia	270
Nyufaundlend va Labrador	135
Yukon	100
Nyu Brunsvik	90
Norzvest teritories	45
Prins Edvard oroli	1
Nunavut	0
Kanada (umumiy)	278410

Kanadada dinsizlar. Kanadada dinsizlar asosan ateistlar, agnostiklar va gumanistlardan iborat. 1991 yilda umumiy aholining 12.3 5ini tashkil qilgan dinsizlar, 2001 yilga kelib 16.2%ni tashkil qilishdi. Kanadalik bazi dinsizlar guruhi turli xil tashkilotlar ham tuzishgan. Masalan, Kanada Gumanistlar Assotsatsiyasi, Toronto Dinsizlik Tashkiloti va Kanada Talablar Markazi kabilardir. Shu bilan birga ba'zi bir Oliy o'quv yurtlarida ham dinsizlik tarafdori bo'lgan tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Kanadada dinsizlarning provinsiyalar bo'yicha taqsimoti⁴³.

Provinsiyalar	Dinsizlar miqdori (foizda)
Yukon	37.4
British Kalambiya	35.1
Alberta	23.1
Manitoba	18.3
Norzvest Territories	17.4
Kanada (umumiy)	16.2
Ontario	16.1
Saskatchevan	15.4
Nova Skotia	11.6

⁴³Population by religion, by province and territory (2001 Census)

Nyu Brunsvik	7.8
Prins Edvard oroli	6.5
Nunavut	6.0
Kvebek	5.6
Nyufaundlend va Labrador	2.5

Xulosa qiladigan bo'lsak, Kanadaning davlat cherkovi yoki davlat dini mavjud emas. Davlat diniy plyuralizm asosida qurilgan. Shu bilan birga, asosiy fuqarolar xristian dinining vakillari va xristian mentaliteti, madaniyati mamlakatda keng tarqalgan. Kristmas va Pasxa bayramlari mamlakat miqyosida nishonlanadi. Boshqa diniy guruhlar o'z diniy bayramlar to'g'ri kelgan kunlarda ishdan ozod bo'lish huquqiga ega. Ba'zi diniy maktablar hukumat tomonidan boshqariladi.

2.2. Kanadadagi diniy tashkilotlar faoliyati haqida umumiy tushuncha

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Ushbu rejada Kanadadagi nodavlat, notijorat tashkilotlarining yirik qismini tashkil qiladigan diniy tashkilotlarni o'rganamiz. Diniy tashkilotlar insonlarni faqatgina ibodat uchun joy bilan ta'minlab qolmasdan, Kanadada juda ko'p vazifalarni bajaradi. Bu rejada asosan, "Berish, Ko'ngilli bo'lib ishlash va Ishtirok etish" degan nom ostida 2000 yilda mamlakatda o'tkazilgan so'rovnoma va 2003 yilda "Nodavlat, notijorat tashkilotlar" to'g'risida o'tkazilgan so'rovnoma natijasi asosida chop etilgan qo'llanmadan keng foydalanildi. Nodavlat, notijorat tashkilotlar haqidagi so'rovnomada mamlakatdagi ixtiyoriy tanlash usuli bilan 13000 tashkilotlarning faoliyati, moliyaviy manbai, inson resurslari va shart-sharoitlari o'rganib chiqildi. "Berish, ko'ngilli bo'lib ishlash va ishtirok etish" so'rovnomasida ham 14000 ixtiyoriy tanlangan, turli provinsiyalardagi fuqarolarning nodavlat, notijorat tashkilotlarga shu jumladan diniy tashkilotlarga ajratadigan vaqtlari va mablag'lari haqida so'raldi. Ikkala so'rovnoma ham nodavlat, notijorat tashkilotlarning jahon klassifikatsiyasi asosida amalga oshirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu esa yuqoridagi ikki so'rovnomaning o'rgangan holatda Kanadadagi diniy tashkilotlarning umumiy holatini bilib olsak bo'ladi deganidir. Natijada, bu tashkilotlar faoliyatlarini ko'proq o'rganib, ularda bo'layotgan muammolari, boshqa nodavlat tashkilotlari bilan farqlari haqida ham tushunchaga ega bo'lamiz.

Bu reja orqali yana:

- 1) Diniy tashkilotlarning ahamiyati va jamiyatdagi xissasi haqida tushunchaga ega bo'lish;
- 2) Diniy tashkilotlaridagi mablag' topish usullari va beminnat, ko'ngillik ishchilarni to'g'ri boshqarish usullari;
- 3) Diniy tashkilotlar ko'ngildagidek faoliyat yuritayotgan sohalar va yordamga muhtoj jihatlarini o'rganish;
- 4) Diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish uchun asosli takliflar kiritish.

Diniy tashkilotlar xususiyati, ularning moliyaviy va inson resurslari, o'z faoliyatlarini amalga oshirishdagi qiyinchilik va shart-sharoitlar.

“Nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatini o’rganishga qaratilgan so’rovnoma ko’ra, Kanadada 31000 diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Bu ko’rsatkich mamlakatdagi umumiy 161000 nodavlat tashkilotlarning 19% ini tashkil qiladi. Jami nodavlat, notijorat tashkilotlarning yillik daromadi 6.8 milliard AQSh dollari tashkil qiladi. Boshqa tashkilotlarga nisbatan diniy tashkilotlar salmoqli hisoblanadi. Ya’ni diniy tashkilotlarning 1/3ning o’rtacha yillik daromadi 100000dan 1000000 AQSh dollarigacha bo’lib, bu ko’rsatkichga boshqa tashkilotlarning 29%i erishgan”⁴⁴.

Amaliyotda deyarli (94%) barcha diniy tashkilotlar hayr-ehsonlarga asoslanadi deb ro’yxatdan o’tkazilgan. Ular o’z faoliyatlarini olib borishlari uchun hech qanday to’siqsiz hayr-ehsonlar olishlar mumkin va hayr-ehson qilgan tashkilotlarga qilgan hayriyalari hisobidan soliqdan tegishli miqdorda chegirma olish to’g’risida hujjat yozib beradilar. Bu tashkilotlarning yarmidan ko’pi (51%) tashkil topganiga 40 yildan oshdi. Bugungi kunda diniy tashkilotlar 20 milliondan oshiq umumiy a’zolar borligini 30 000 dan oshiq tashkilotlar bilan hamkorlik qilayotganliklari to’g’risida axborot berishgan. Qizig’i shundaki, faqatgina 27% diniy tashkilotlar hisobotiga ko’ra, ular faoliyatidan asosan shu tashkilotlarga a’zo kishilar ko’proq manfaat olar ekanlar. Tashkilotlarning qolgan qismi xizmatlaridan ham shu tashkilotlarga a’zolar, ham a’zo bo’lmaganlar foydalanayotganligi ma’lum bo’ldi.

“Umumiy nodavlat, notijorat tashkilotlaridagi jami pul mablag’larining katta qismi kam sonli tashkil qiladigan yirik-yirik tashkilotlar hisobiga to’g’ri kelishi mumkin. Bunday natijalar, ayniqsa, diniy tashkilotlarda mavjud bo’lib, jami diniy tashkilotlarning atiga 4%ning yillik daromadi 1 million AQSh dollaridan ko’proqdir. Bu miqdor 48% diniy tashkilotlar yillik daromadining yig’indisiga tengdir. Ma’lum bo’ladiki, mamlakatdagi hamma diniy tashkilotlarda moliyaviy mablag’lar keskin darajada notekis taqsimlanadi”⁴⁵.

Diniy tashkilotlar asosan sovg’alar va hayr-ehsonlar hisobidan faoliyat yuritadi. Insonlardan, korxonalar, kompaniyalardan tushgan mablag’lar diniy tashkilotlarning 64% daromadini tashkil qiladi. Tashkilotlarga a’zo insonlardan

⁴⁴ www.statcan.gc.ca

⁴⁵ www.statcan.gc.ca

tushadigan hayr-ehsonlar daromadning asosiy qismi, ya'ni 57% idan iboratdir. Diniy tashkilotlarining to'rtidan uch qismi (77%) 2000-2003 yillar davomida tashkilotda yig'ilgan mablag'lar o'sganligini yoki stabil bo'lganligini ta'kidlashgan.

“Berish, ko'ngilli bo'lib ishlash va ishtirok etish” nomli so'rovnoma natijalariga ko'ra, 15 yoshdan yuqori bo'lgan kanadaliklarning 32% i (tahminan 8 million kishi) 2000 yilda diniy tashkilotlarga turli usullarda ehson qilishgan. O'rta miqdorda har bir kishi yillik 310 AQSh dollari ehson qilgan ekan. Diniy tashkilotlarga mamlakatda qilingan barcha hayr-ehsonlarning 14%i va nodavlat, notijorat tashkilotlargagina tushgan ehsonlarning 49%i to'g'ri keladi. Yana shu ma'lum bo'ldiki, diniy tashkilotlarga ehson qiluvchilar boshqa ehson qiluvchilar ichida yoshi kattalarni tashkil qilar ekan va ular diniy majburiyatlarini his qilgan holda, bu ishni amalga oshirishar ekan.

Diniy tashkilotlar boshqa tashkilotlarga qaraganda moliyaviy yetishmovchilik bo'yicha, kamdan-kam hollarda hukumatga murojaat qilishadi. Ularning asosiy moliyaviy manbai yakka shaxslardan tushadigan hayr-ehsonlar bo'lib, 44% tashkilotlar insonlar hayr-ehsonlarni kamaytirishganligi sababli moliyaviy yordam uchun hukumatga murojaat qilgan. Bunday tashkilotarning atiga 14 % boshqa tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi va bu 14%ning 1/3 qismi homiy tashkilotlar yordamiga asossiz ishonganligi, eng muhim faoliyatini amalga oshira olmayotganligi yoki hukumat yordami kamayganligi kabi shikoyatlar bilan murojaat qilishadi.

“Nodavlat, notijorat tashkilotlari to'g'risidagi so'rovnomaga ko'ra, diniy tashkilotlarda 2003 yilda 109000 kishi rasmiy ish faoliyatini olib borgan. Bu esa jami nodavlat, notijorat tashkilotlarda ishlayotganlarning 5%ini tashkil qilardi. Diniy tashkilotlarda insonlar asosan ish haqisiz, beminnat ishlashadi. Bu turdagi tashkilotlarda faoliyat yuritayotganlar boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlardagiga qaraganda ma'lum miqdordagi oylik-maoshga ishlashadi. Diniy tashkilotlarning deyarli 65%ida hech bo'lmaganda bir kishi oylik-maosh olib ishlaydi, boshqa nodavlat tashkilotlarda esa bu ko'rsatkich 46%dir. Diniy tashkilotlarning 51%ida

bir kishidan to'rt kishigacha bo'lgan asosiy ishchi tarkibiga ega. Bu ko'rsatkich boshqa tashkilotlarda 26%dan iborat⁴⁶.

Diniy tashkilotlar o'zlarining oylik-maosh bilan ishlayotgan ishchilari bilan bog'liq muammolar bilan kam hollarda shikoyat qilishadi. Masalan, diniy tashkilotlarning 26%i ko'ngillilar(volontyor)ni jalb qilish va ularni boshqarish bilan shug'ullanadigan oylik-maoshga ishlaydigan ishchi yetishmasligi to'g'risida shikoyat qilsa, boshqa tashkilotlarning 34%i bu masalada shikoyat qiladi. Shu bilan bir qatorda, diniy tashkilotlarning 22%i ishchilar bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha murojaat qilsa, boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlarning 27%i bunday talab bilan chiqadi.

Ko'ngilli, beminnat xizmatchilar (volontyorlar)ning diniy tashkilotlar faoliyatida o'zni muhim ahamiyatga ega. "Berish, volontyorlik qilish va ishtirok etish" deb nomlangan so'rovnoma ko'ra, 2000 yilda taxminan 1.3 million kanadaliklar diniy tashkilotlarda beminnat xizmat ko'rsatganlar. Har bir ko'ngilli, beminnat xizmatchi o'rtacha 126 soatdan, jami bo'lib 170 million soat diniy tashkilotlar faoliyatiga sarflangan. Boshqa tashkilotlardagi beminnat xizmatchilarga nisbatan diniy tashkilotlarining volontyorlari quyidagi jihatlari bilan farqlangan⁴⁷:

- 1) asosan ayollar;
- 2) yoshi 45 va undan oshganlar;
- 3) turmush qurganlar;
- 4) o'rta maktabni tugatganlar;
- 5) yillik daromadi 60 ming AQSh dollaridan kam bo'lgan oilalar.

Bu ma'lumotlar haftalik diniy ibodat uchun ibodatxonaga kelganlar asosida olindi. Diniy tashkilotlar barqaror daromadga ega muassasalar hisoblanadi. Bu tashkilotlar mahalliy hukumatlar, homiyalar, volontyorlar va ishchi hodimlar yordami bilan moliyalashtiriladi va ish faoliyati olib boriladi. Diniy tashkilotlar duch kelayotgan asosiy muammolardan biri bu moliya manbai sifatida yoshi katta, daromadi uncha


⁴⁶www.statcan.gc.ca

⁴⁷Van Die, Marguerite. Religion and public life in Canada: historical and comparative perspectives. University of Toronto Press, 2001. –P.185.

ko'p bo'lmagan yakka shaxslardan tushayotgan mablag'larga va ular ko'rsatayotgan beminnat xizmatlarigagina suyanib qolishlaridir. Endilikda diniy tashkilotlar o'z faoliyatlari davomiyligini ta'minlashlari uchun mamlakat fuqarolarining turli qatlamlaridan bo'lgan a'zolarini ko'paytirishlari zarur.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga haqlidirlar. Ular davlat, jamoat korxonalari va tashkilotlarining ishchi xizmatchilari bilan baravar soliq to'laydilar, ijtimoiy ta'minlanish va sug'urta qilish xizmatlaridan foydalanadilar. Umumiy asosda pensiya olish huquqiga egalar.

Kanadada diniy tashkilotlarning daromad manbalari⁴⁸.



Yuqoridagi diagrammardan ko'rinib turibdiki, diniy tashkilotlar boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlardan farqli o'laroq, asosiy daromadlarini sovg'a-salom va hayr-ehson shaklida, kamroq qismini davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy yordam va ishlab-shiqarish, xizmat ko'rsatishdan tushgan mablag' shaklida qo'lga kiritadi. Hayr-ehson va sovg'alar bu tashkilotlarning yillik daromadining 64%ini tashkil qilib, asosan yakka shaxslar tomonidan beriladi. Diniy tashkilotlarning ikkinchi daromad manbai bu ularning xizmat ko'rsatishi va ba'zi hollarda tadbirkorlik faoliyati natijasidir. Bunday faoliyat natijasida 24% daromad shakllanadi. Davlat tomonidan ajratilgan turli yordamlar diniy tashkilotlar daromadining atiga 8%ini tashkil qilgan ekan.


⁴⁸ www.statcan.gc.ca

Diniy tashkilotlarning daromad manbalari boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlarnikidan katta farq qilar ekan. Ikkinchi ustunda o'z aksini topgan boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlar daromadining 49%i davlat hisobidan, 35%i ishlab chiqarish yoki hizmat ko'rsatishdan, 13%i esa hayr-ehson va hadyalardan iborat. Kasalxona, ta'lim muassasalaridan tashqari boshqa tashkilotlar esa, daromadning 36%i davlat hisobidan, 43%i xizmatlar va tadbirkorlik natijasida, 17%i hayr-ehsonlardan kelib tushadi.

Hududlar bo'yicha diniy tashkilotlar miqdori va daromadiga ko'ra taqsimoti. Diniy tashkilotlar mamlakat hududlari bo'ylab turli miqdorda joylashgan. Atlantik okeani bo'yidagi provinsiyalarda nodavlat, notijorat tashkilotlarning 27% diniy tashkilotlarni iborat bo'lib, eng ko'p hisoblanadi. Kvebek provinsiyasida esa eng kam ko'rsatkich ya'ni 11% nodavlat, notijorat tashkilotlar diniydir.

Daromadlarga keladigan bo'lsak, Praieres&Territories va Kvibik provinsiyalarida tashkilotlar umumiy daromadining 5% kabi eng kam ko'rsatkichdan British Kalambiya provinsiyasida esa 8% yuqori natijalarni ko'rsatadi.

Diniy tashkilotlarning hududlar bo'yicha umumiy soni va daromadi (foizda)⁴⁹



Diniy tashkilotlar o'z mulklariga ega bo'ladilar. Binolar, din bilan bog'liq buyumlar, ishlab chiqarish va hayriya ishlariga mo'ljallangan inshootlar, pul mablag'lari hamda diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan

⁴⁹ www.statcan.gc.ca

boshqa mol-mulk diniy tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy hayriyalardan, shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag'lardan davlat solig'i undirilmaydi.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga haqlidirlar. Ular davlat, jamoat korxonalari va tashkilotlarining ishchi xizmatchilari bilan baravar soliq to'laydilar, ijtimoiy ta'minlanish va sug'urta qilish xizmatlaridan foydalanadilar. Umumiy asosda pensiya olish huquqiga egalar.

Praires va Territories shu bilan birga Atlantik provinsiyalarida diniy tashkilotlar juda ko'p miqdorda joylashgan bo'lib, har 100000 kishiga 176 ta tashkilot to'g'ri kelmoqda. Kvebekda esa, juda kam tashkilotlar mavjud bo'lib, har 100000 kishiga 70 ta tashkilot to'g'ri kelmoqda.

Boven va Mayerlarning so'zlariga qaraganda, Kvebekdagi diniy tashkilotlarning juda kam bo'lishiga sabab, 1960 yilda xristian dinining shu hududdagi ta'sirini kamaytirishga qaratilgan "Tinchlik Inqilobi" deb nomlangan xalq namoyishi bo'lishi mumkin.

Diniy hayriya tashkilotlariga:

- Diniy tashkilotlar (Umumiy) (586)
- Anglikan herkovlari va tashkilotlari (164)
- Bahoi e'tiqodchilar tahkilotlari (1)
- Baptist cherkovlari va tashkilotlari (158)
- Buddaviylik (34)
- Katolik cherkovlari va tashkilotlari (126)
- Xristian tashkilotlari (881)
- Xristian diniy ta'lim (161)
- Yevangelik cherkovlari va tahkilotlari (461)
- Nemis va rus ortodoks cherkovlari va tashkilotlari (12)
- Hinduiylik ibodatxonalari va tashkilotlari(3)
- Islomiy tashkilotlar (29)
- Yahudiy tashkilotlari(109)
- Yahudiy maktablari (25)

- Luteran cherkovlari va tashkilotlari (59)
- Mennonit cherkovlari va tashkilotlari (67)
- Metodist cherkovlari va tashkilotlari (9)
- Missiyalar and Missiyanerlar
- Musulmonlar tashkilotlar (22)
- Pentecostal cherkovlari va tashkilotlari (120)
- Presbiterian cherkovlari va tashkilotlari (44)
- Diniy lagerlar (132)
- Diniy Ta'lim (122)
- Diniy ommaviy axborot vositalari (31)
- Qutqaruv armiyasi (453)
- Synagoglar va Ibodatxonalar (22)
- UkrainlikKatoliklar cherkovlari va tashkilotlari (2)
- Ukrainlik ortodokslar cherkovlari va tashkilotlari (8)
- Birlashgan cherkovlar va tashkilotlar (146)

Hududlar bo'yicha diniy hayriya tashkilotlarining miqdori:

- Alberta (280)
- British Columbia (383)
- Manitoba (131)
- Yangi Brunsvick(46)
- Newfoundland and Labrador(108)
- Shimoliy sharqiy hududlar (7)
- Nova Scotia (101)
- Nunavut (1)
- Ontario (1287)
- Prince Edward Island (9)
- Quebec (172)

Saskatchewan(109)

Yukon(5)

Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, Kanadadagi diniy tashkilotlar faqat diniy ibodatlar va marosimlar bilan chegaralanib qolmaydi. Bu tashkilotlar:

- jamiyatda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega;
- asosan o'rtacha kattalikdadir;
- moliyaviy o'z-o'zini ta'minlay oladi;
- hayr-ehsonga bog'langan;
- ko'plab beminnat, ko'ngilli ishchilar mehnatidan keng foydalanadilar;
- turli e'tiqoddagi insonlar jamoasiga xizmat qiladi;
- kamida bitta asosiy ishchisiga ega;
- boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlarga qaraganda kamroq muammolar bilan murojaat qilishadi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xuloslarga keldik:

- ✓ Diniy erkinlik ham O'zbekiston, ham Kanada Konstitutsiyasida belgilangan huquqlardan biri hisoblanib, mamlakat hududida har qanday dinga e'tiqod qiluvchilarga hech qanday cheklov yoki aralashishsiz bir joyga jamoa bo'lib to'planish va ibodat qilishga qonun tomonidan ruhsat beriladi;
- ✓ XIX asrning ikkinchi yarmigacha Kanadada umumiy ta'lim faoliyati bevosita Protestant va Rim-katolik cherkovlari ta'siri ostida bo'lgan. Professor Foster: "Kanadada umumiy ta'lim o'sishiga protestant va Rim-katolik cherkovlari ta'siri katta edi";
- ✓ 1990 yil 6 dekabrda Ontario ta'lim vazirligi matbuotda e'lon qilishicha, jahon dinlarining har bir insonga yoki biror bir jamiyatga e'tiqod usullari va maqsadlarini o'rgatilishi mumkin edi. Shunday ekan, biror bir dinnigina o'qitilib, uning boshqa dinlardan ustunligi haqidagi targ'ibotlar ta'qiqlanadi.
- ✓ Kanadadagi turli diniy konfessiyalar mavjudligi va din vakillari tabiiy va sun'iy ko'payishi va kamayishi immigrantlar oqimi sabab bo'ladi;
- ✓ Diniy tashkilotlarning ahamiyati va jamiyatdagi xissasiga, diniy tashkilotlaridagi mablag' topish usullari va beminnat, ko'ngillik ishchilarni to'g'ri boshqarish usullariga egadirlar;
- ✓ Diniy tashkilotlar ko'ngildagidek faoliyat yuritayotgan sohalar va yordamga muhtoj jihatlarini o'rganildi.

Mamlakatdagi mavjud dinlar va ularga e'tiqod qiluvchi fuqarolarni 2006 yilda o'tkazilgan so'rovnoma asosida o'rganganimizda, bugungi kunda Kanada hali hanuz Rim-katolik va protestant yo'nalishlari keng tarqalgan hududlardan biri hisoblanadi. Har o'nta kanadalikning yettitasi o'zini katolik, yoki protestantlikka e'tiqod qilishini aytgan. Mazkur so'rovnomadan so'ng protestantlikka e'tiqod qiluvchilar soni muntazam kamayib borish tendensiyasini ko'rsatganini kuzatishimiz mumkin. Katoliklar esa oz miqdorda oshgan bo'lsada, mamlakatdagi umumiy miqdori kamaygani namoyon bo'lmoqda.

Shu vaqtning o'zida, islom, hinduiylik, sikhiylik va buddaviylik e'tiqod qiluvchi kanadaliklar soni sezilarli oshganini kuzatsak bo'ladi. Oxirgi o'n yillardagi mamlakatning diniy qiyofasi o'zgarishlariga sabab, Kanadadagi diniy xilma-xillik sababi esa immigranlar oqimining o'zgarishidir. Shuningdek, bundan 70 yil ilgari mamlakatda dominant bo'lgan protestant yo'nalishi tarkibidagi anglikan va birlashgan cherkov tarmog'iga e'tiqod qiluvchi aholining keksayib borishi, ular o'rniga yangi din vakillari tabiiy va sun'iy ravishda o'sishi ham bunday hollarga sabab bo'lmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning I bobida Kanada davlatida din va davlat munosabatlari, diniy erkinlik, ta'lim tizimida diniy fanlar o'qitilishi tarixi va hozirgi kundagi vaziyatni o'rganib chiqdik. II bobida esa Kanadada qanday diniy konfessiyalar mavjudligi, ularning mamlakat bo'ylab joylashuvi va har bir konfessiyaning a'zolari miqdori tahlil qilindi. So'nggi rejada Kanadadagi diniy tashkilotlar faoliyati: moliyaviy ahvoli, inson resurslari va provinsiyalar bo'yicha joylashuvi yoritildi.

Kanadada 31000 diniy tashkilotlar mavjud. Respublikamizda esa 2011 yilning 1 yanvar kuniga qadar ro'yxatga olingan 2205 diniy tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Istiqlol yillarida din sohasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Respublikamizda 2049 ta islomiy tashkilot, jumladan, 2037 ta masjid, Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, shuningdek, jami 179 ta noislomiy diniy tashkilot, xususan, provaslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda.

Tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz. Shunga ko'ra, xorijiy davlatlar bilan aloqalar o'rnatishda bu kabi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda juda keng miqyos va ko'lam kasb etgan, inson va jamiyatning va osuda hayoti hamda taraqqiyotiga tahdid tug'dirayotgan radikal tashkilotlarga qarshi kurash, uning oldini olish o'zlarining asrlar davomida shakllangan diniy-milliy qadriyatlariga ega mamlakatlar uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yakuniy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, xorijiy davlatlarda tarqalgan dinlar, ularning yo'nalishlarini o'rganish hozirgi davrning diniy manzarasini yaqqol tasavvur qilish, kelajakda ham bu boradagi tinchlikni saqlash va hamkorlikni mustahkamlash yo'llari hamda imkoniyatlarini izlab topishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Rasmiy hujjatlar va manbalar

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 432b.
2. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: O'zbekiston, 2011. T.19. – 360b.
3. Karimov I.A. Jahon inqirozining modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. – O'zbekiston, 2010. – J.18. 280b.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi. T.: O'zbekistan, 2008. - 40b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston 1997. – 326b.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: “Sharq” nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – 31b.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998. – 429b.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - T.: O'zbekiston, 1999. – 410b.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 320b.

Tadqiqotlar

O'zek tili

10. Islom va hozirgi zamon. O'quv qo'llanma.-T.: Toshkent Islom Universiteti, 2010. – 206b.
11. Ochildiyev A. S. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini yo'llari (yuz savolga-yuz javob)/ O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom unvertiteti. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 200b.

Rustili

12. Юнусова А.Т. Религия и закон. –Т: Ташкентский исламский университет, 2002. – 238б.
13. Воробьёва А.А/Ислам в США: тенденции развития. 2001.
14. Мусульмани в Америке. Государственный департамент США. Бюро информационных программ. – 59с.

G'arbtillari

15. Murphy, Terrence et al. (eds.). A Concise History of Christianity in Canada. Toronto: Oxford University Press, 1996. – P.753.
16. Bibby, Reginald. Restless Gods. Toronto.:Novalis, 2004. – P.524.
17. Miedema, Gary R. For Canada's Sake: Public Religion, Centennial Celebrations, And the Re-making of Canada in the 1960s. McGill-Queen's University Press. 2006. – P.354.
18. Hewitt, W.E. "The Quest for the Just Society: Canadian Catholicism in Transition" in W.E. Hewitt, ed., The Sociology of Religion: A Canadian Focus , Toronto, Butterworths, 1993. – P.451.
19. McGowan, M.G."Coming Out of the Cloister: Some Reflections on Developments in the Study of Religion in Canada, 1980-1990", International Journal of Canadian Studies, 1990,
20. Nock, D.A. "The Organization of Religious Life in Canada" in W.E. Hewitt, ed., The Sociology of Religion: A Canadian Focus , Toronto, Butterworths, 1993. - P.309.
21. O'Toole, R., "Some Good Purpose: Notes on Religion and Political Culture in Canada", Annual Review of the Social Sciences of Religion , 1982.
22. O'Toole, R. D.F. Campbell, J.A. Hannigan, P. Beyer and J.H. Simpson, "The United Church in Crisis", Studies in Religion/Sciences Religieuses, 1991. – P.877.
23. Ralston, H. "Strands of Research on Religious Movements in Canada", Studies in Religion/Sciences Religieuses, 1988.

24. Simpson, J.H. "Religion and the Churches" in J. Curtis and L. Tepperman, eds., *Understanding Canadian Society*, Toronto, McGraw-Hill Ryerson, 1988.
25. Stahl, W.A. "Symbols of Canada: Civil Religion, Nationality, and the Search for Meaning", Ph.D. dissertation, Graduate Theological Union, Berkeley, California, 1981.
26. Stark, R. and W.S. Bainbridge, *The Future of Religion*, Berkeley, University of California Press, 1985.
27. Peter Bush, "The Reverend James Caughey and Wesleyan Methodist Revivalism in Canada West, 1851-1856," *Ontario History*, Sept 1987, Vol. 79 Issue 3.
28. Raymond J. Lahey, *The First Thousand Years: A Brief History of the Catholic Church in Canada*, 2002.
29. Daryl Baswick, "Social Evangelism, the Canadian Churches, and the Forward Movement, 1919-1920," *Ontario History* vol 12#1 1997.
30. Roger O'Toole, "Religion in Canada: Its Development and Contemporary Situation" In Lori Beaman, ed., *Religion and Canadian Society: Traditions, Transitions, and Innovations*. Toronto: Canadian Scholars' Press, 2006.
31. Bryan Hillis, "Outsiders Becoming Mainstream: The Theology, History and Ethnicity of Being Luthern in Canada" In P. Bramadat & D. Seljak, *Christianity and Ethnicity in Canada*. Toronto: Pearson Longman, 2005.
32. Wendy Fletcher, "Canadian Anglicanism and Ethnicity" In P. Bramadat & D. Seljak, *Christianity and Ethnicity in Canada*. Toronto: Pearson Longman, 2005. – P.133.
33. Brown, Michael *The Beginning of Jewish Emancipation in Canada: The Hart Affair*. Michael, vol. 10, 1986.
34. Beaman, Lori G. *Religion and Canadian society: traditions, transitions, and innovations*. Cambridge Scholars Publishing. 2006.
35. Beaman, Lori G; Peter Beyer. *Religion and diversity in Canada*. Leiden Brill. 2008.

36. David Seljak. Religion and Ethnicity in Canada. University of Toronto Press. 2009. P.568.
37. Bramadat, Paul; Seljak, David. Christianity and ethnicity in Canada. University of Toronto Press. 2008. P.322.
38. Choquette, Robert. Canada's religions: an historical introduction. University of Ottawa Press. 2004. P.234.
39. Fay, Terence J. A History of Canadian Catholics. 2002.
40. Magocsi, Paul R. Encyclopedia of Canada's peoples. Society of Ontario, University of Toronto Press. 1999. – P.456.
41. Miedema, Gary R. For Canada's sake: public religion, centennial celebrations, the re-making McGill-Queen's University Press. 2005.
42. Moon, Richard X. Law and religious pluralism in Canada. UBC Press. 2005. – P.124.
43. Murphy, Terrence, and Roberto Perin, eds. A Concise History of Christianity in Canada, 1996.
44. Stackhouse, John. Canadian Evangelicalism in the Twentieth Century. University of Toronto Press. 1993. – P.357.
45. Swyripa, Frances. Storied Landscapes: Ethno-Religious Identity and the Canadian Prairies. University of Manitoba Press, 2010. - P.296.
46. Van Die, Marguerite. Religion and public life in Canada: historical and comparative perspectives. University of Toronto Press. 2001. – P.246.

II. Internet saytlari

47. <http://www.uza.uz>
48. <http://www.mfa.uz>
49. <http://www.statcan.gc.ca>
50. <http://www.google.com>
51. <http://www.cia.gov>
52. <http://www.acs-aec.ca/Polls/30-03-2005.pdf>
53. <http://www.wikipedia.com>
54. <http://www.yahoo.com>

Ilovalar

Ilovalar

1-ilova

Ottavadagi masjid



2-ilova

Kvebek provinsiyasidagi masjid



3-ilova

Ontario provinsiyasi, Toronto shahridagi yahudiylar siynagogasi.




4-ilova

Kensington shahri yaqinidagi Maryam cherkovi. Bugungi kunda Hinduiy Festivallar Assotsiatsiyasi qaramog'ida bo'lib, konsertlar o'tkaziladi.



5-ilova

Har 100000 kishiga to'g'ri keladigan diniy tashkilotlarning hududlar bo'yicha miqdori.⁵⁰



⁵⁰ www.statcan.gc.ca

6-ilova

N	Diniy yo'nalishlar nomlanishi	Jami	Markazlari	Diniy tashkilotlar	O'quv yurtlar
1.	Islom	2051	2	2039	10
2.	Rus provaslav	38	1	33	1
3.	Rim katolik	5	1	4	
4.	Yevangel xritian-baptistlar	23	1	22	
5.	To'liq injil xristianlar	21	1	19	
6.	Yettinchu kun xristian-adventistlar	10		10	
7.	Yevangel-luterianlar	2		2	
8.	Yangi opostol	4		4	
9.	"Iyegov guvohlari"	1		1	
10.	Arman Apostollik	2		2	
11.	"Golos Bojiy" xristian	1		1	
12.	Koreys protestant	52		52	
13.	Yahudiylar diniy jamoalari	8		8	
14.	Bahoi diniy jamoalar	6		6	
15.	Krishnani anglash jamiyati	1		1	
16.	Budda ibodatxonasi	1		1	
17.	Bibliya kitob jamiyati	1	1		
	O'zbekiston bo'yicha	2227	7	2205	12

Resume

The thesis of Ashirova Xolida Asqar qizi for the Bachelors degree in 5220400-Religious studies.

Subject: “Religious organizations in Canada”.

Key words: Canadian Charter of Human Rights, religious tolerance, Rome Catholic, Protestant, Muslim, Jew, Sikh, Buddhist, irreligion.

Aim of the work: To research the relations between government and religions, the influence of the religion on the education, the condition of all religious organizations, major religious confessions in Canada.

Main content: Introduction, level of learned, aim and task, importance of results, given about work of involvements.

The first chapter includes relation between government and religions, the influence of religion on the education in Canada.

The second chapter includes major religious confessions and the overall information about all religious organizations in Canada.

Practical value of the research: In this research work the optimal relations of government and religions of all the citizens, connection between educational organizations and religion, religious tolerance of every confession to the other one, role of the religious organization in Canada were stated. Furthermore, keeping peace, providing religious freedom and tolerance among people.

Резюме

Тезис предназначен для получения бакалаврской степени (религиоведение- 5220400) Ашировой Холиды Аскар кизы.

Тема работы : “Религиозные организации в Канаде”.

Опорные слова: Канадская хартия по правам человека, религиозная толерантность, Католицизм, Протестантизм, Ислам, Иудаизм, Сикхизм, Буддизм, Атеизм.

Цель работы: изучение отношений между государством и религией, влияние религии на образование, состояние религиозных организаций, основные религиозные конфессии в Канаде.

Основное содержание: вступление, степень изучённости, цели и задачи, актуальность темы.

В первой главе говорится об отношениях между государством и религией, влиянии религии на образование в Канаде.

Вторая глава об основных религиозных конфессиях и общая информация о религиозных организациях в Канаде.

Практическая значимость исследования: в данной работе показаны состояние отношений между государством и религией всех граждан, взаимоотношения между образовательными учреждениями и религией, религиозная терпимость между конфессиями, роль религиозных конфессий в Канаде. А также сохранение мира и спокойствия, обеспечение религиозной свободы и толерантности среди людей.